

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Arzikulova Sohiba Abdujabbor qizi**

# **JADID SHE’RIYATIDA IJTIMOIY MAVZULAR**

**Monografiya**

**“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2024**

**UO‘K: 894.375**  
**KBK: 83.3(50‘z)**  
**A 81**

Arzikulova Sohiba Abdujabbor qizi.

Jadid she‘riyatida ijtimoiy mavzular [Matn]: monografiya /  
S.A. Arzikulova. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 78 b.

**Mas‘ul muharrir:**

**Xolikova Nodira Djohongirovna,**  
ChDPU dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi.

**Taqrizchilar:**

**Davlatova Adiba Raxmatovna,**  
ChDPU professori .v.b., filologiya fanlari doktori.

**Shaymardonov Tilovmurod Abilayevich,**  
TIPI dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Monografiyada o‘zbek jadid she‘riyatida ijtimoiy mavzular jadid adabiyotining yorqin namoyandalari Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon lirik merosi tahlili orqali ochib berilgan. Jadid she‘riyati bilan mumtoz she‘riyatning integral va differensial belgilari ko‘rsatilgan. Avloniy, Hamza, Cho‘lpon lirikasining vazn va janr xususiyatlari, badiiy obraz masalasi, g‘oyaviy yo‘nalishlari, ijtimoiy-siyosiy ahamiyati, ulardagi ramziylikning o‘ziga xos jihatlari misollar yordamida qiyosiy tadqiq etilgan.

Monografiya talabalar va maktab o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy-texnik Kengashining 2024-yil 29-oktabrdagi 4-sonli majlis bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**ISBN 978-9910-06-317-6**

© Arzikulova S.A., 2024.  
© “Bookmany print” nashriyoti, 2024.

## KIRISH

XX asr boshlaridayoq milliy ozodlik bayrog‘ini baland ko‘tarib jahon jamoatchiligini o‘ziga qaratgan jadidchilik adabiyoti hamisha e‘tiborga loyiqdir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Umuman, biz jadidchilik harakati, ma‘rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma‘naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”<sup>1</sup>. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bu masalaga katta e‘tibor qaratayotganining yana bir yorqin dalili 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag‘on qurbonlari merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5598-sonli farmoyishidir. “XX asr xalqlar hayotida azob-uqubatlar, tajovuzlar, fojialar barobarida buyuk bunyodkorliklar davri bo‘ldi. Shu bois, asr kechmishlarining har birini maxsus, alohida anglashimiz, o‘rganishimiz, tahlil qilishimiz kerak. Negaki, o‘sha tarix kelgusi avlod uchun ham saboq bo‘ladi”<sup>2</sup>.

XX asr keskin ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga boy bo‘ldi. Bu ijtimoiy-siyosiy, ma‘rifiy jarayonlar esa bevosita adabiyotga ta‘sir o‘tkazdi. Xususan, bu davr she‘riyati shu jarayonlarning aks-sadosi sifatida maydonga keldi. Lekin mustamlaka davri she‘riyatini, umuman mustamlakachilik adabiyotini xolis va shaffof tadqiq etishga to‘la yo‘l ochilmadi. Ularni ilmiy-nazariy baholashda izchillik bilan ish tutilmadi.

Yurtimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgach, XX asr adabiyotini chuqur o‘rganish uchun yo‘l ochildi. XX asr boshlari o‘zbek she‘riyatining yangilanish tamoyillarini, undagi janr, vazn masalalarini, ramziylik va g‘oyaviy konsepsiyalarini o‘rganish yuzasidan bir qator tadqiqot ishlari olib borildi. Shunday bo‘lsa-da, bu yo‘nalishning ochilmagan qirralarini ko‘rsatib berish o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo‘lib

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: Tasvir, 2020. – B. 50-51.

<sup>2</sup>Qatag‘on qurbonlari xotira kitobi , I qism. –T.: Akademnashr, 2021. B 7.

qolmoqda, chunki jadid she'riyati katta dengiz bo'lsa, unga suv quygan daryolar – jadid shoirlari yuksak mahorat egalari ekanligi tadqiqotlarda isbotini topgan haqiqatdir.

Jadid ijodkorlari orasida Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon kabi millat ziyolilarining publitsist, nosir, dramaturg, ayniqsa, shoir sifatidagi izlanishlari betakror iste'dod, keng dunyoqarash va milliy tafakkurning mevasi ekanligi bilan ajralib turadi. Shu bois Avloniy, Hamza, Cho'lpon kabi jadid namoyandalarining ijodiy qarashlarini tadrijiy va qiyosiy tarzda o'rganish, ilmiy-amaliy jihatdan foydalanish bugungi kun uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbek jadid she'riyatining ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon she'riyatida poetik shakl, mazmun, o'zbek jadid she'riyati taraqqiyoti tamoyillarini belgilovchi omillarni aniqlash, Avloniy, Hamza, Cho'lpon lirikasiga xos ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik ruhning uyg'unligini ko'rsatib berish, ma'rifat va ozodlik mavzusi ijodkor "men"i va lirik qahramon kechinmalari bilan o'zaro uyg'unligi misollar yordamida ko'rsatib berish, uchala shoir ijodidagi mumtoz janrlarga va xalq og'zaki ijodiga xos xususiyatlarni o'zida jamlagan "milliy she'rlar" ijodkorlarning milliy adabiy-estetik tafakkuri mahsuli ekanligi misollar bilan dalillash she'riyatida poetik obraz yangilanishi qonuniyatlari Vatan va millat obrazi, ma'rifatli va ilmsiz zamondoshlar obrazi orqali ijodkor estetik idealining badiiy in'ikosi sifatida milliy she'riyatimizda o'ziga xos yangilik she'rlar tahlili orqali ilmiy-nazariy xulosalar berish muhim masalalardan sanaladi.

Jahon adabiyotshunosligida jadid she'riyati, xususan, o'zbek jadid she'riyati masalasini E.Olvort, A.Bennigsen, T.Xo'jao'g'li, H.Komatsu, A.Holid kabi olimlar chuqur tadqiq etishgan<sup>3</sup>. Rus

---

<sup>3</sup>Allworth E. The Modern Uzbeks: from the 14th Century to the Present. A Cultural History. – Hoover Institution Press, 1990. – 424 p; O'sha muallif. Evading Reality. – Leiden: Brill, 2002. – 372 p; O'sha muallif. Uzbek literary politics. – Hague: Mouton, 1964. – 366 p. Bennigsen A. Islam in the Soviet Union. – New York: Frederick A. Prager, 1967. – 272 p; T. Kocaoglu T. Nationality identity in soviet central asian literature: kazakh and uzbek prose fiction of the post-stalin period. Diss.work. – New York: University of Columbia, 1983; O'sha muallif. Indian revolutionaries as metaphor in modern uzbek literature // Asia Annual, 2004. – New Delhi: Shipra Publications 2004. – R.1-23; Komatsu H. Revolutionary Central Asia: A Portrait of Abdurauf Fitrat. – Tokyo: University of Tokyo Press, 1996; O'sha muallif. 20 Yuz yil Baslarinda

adabiyotshunosligida esa N.Aseev, I.Bexer, Yu.Borev, S.Vladimirov, Ya.Parandovskiy, N.M.Shanskiy, G.Dmitriyev, R.Muxammedshin, E.Mamishева, I.Miftaxov kabi olimlarning she'riyatning yangilanishi, obrazlar poetikasi, jadid she'riyati tarixiy ildizlari masalalariga doir asarlari chop etilgan<sup>4</sup>.

Turkiy xalqlar adabiyotshunosligida jadid she'riyati milliy adabiyotlar doirasida tekshirilgan. Xususan, I.Marash, D.Hamzabekuli, A.So'egova, D.Saparaliev tadqiqotlarida o'zbek, turk, turkman, qirg'iz, qozoq jadid she'riyati ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan<sup>5</sup>.

O'zbek adabiyotshunosligida XIX asr oxiri XX asr boshlari o'zbek she'riyati O.Sharafiddinov, B.Qosimov, U.Normatov, N.Karimov, I.G'afurov, Sh.Turdiyev, H.Boltaboyev, A.Jalolov, O.To'laboyev kabi olimlarning ishlarida tadqiq etilgan. Shuningdek, o'sha davr ijtimoiy voqeligini o'rganishda U.Dolimov, Sh.Rizayev, B.Karimov, Z.Abdurashidov, N.Egamqulova kabi olimlarning tadqiqotlari jadid adabiyoti masalasini yoritishda muhim ahamiyat

---

Orta Asyada Turkculuk ve Devrim Hareketleri. – Ankara: Turhan Kitabevi, 1993; O'sha muallif. Uç ceditci ve deg'ışen dünya // // Türkistan'da Enilik Hareketleri ve İhtilaller: 1900-1924 (*Osman Hoca Anısına İncelemeler*). Hazırlayan: Timur Kocaoğlu. İkinci Baski. – Hollanda: Haarlem, 2018. – P.304-318; Khalid A. Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. – California: University of California Press, 2007. – 272 p; Sarfraz Khan. Muslim Reformist Political Thought: revivalists, modernists and free will routledge. – London, 2003. – 236 p.

<sup>4</sup> Асеев Н. Зачем и кому нужна поэзия. – Москва: Сов. писател, 1961. – 557 с.; Бехер И. Любовь моя, поэзия -Москва: Худ. лит., 1965. – 559 с.; Боров Ю. Искусство интерпретации и оценки (опыт прочтения «Медную всадника»). – Москва: Сов. писатель, 1981. – 399 с; Владимиров С. Стих и образ. – Москва: Сов. писатель, 1968. – 159 с.; Парандовский Я. Алхимия слова. – Москва: Прогресс, 1971. – 184 с.; Шанский Н.М. Лингвистический анализ художественного текста. –Л.: Просвещение, 1990. – 415 с. Г. Л. Дмитриев. Индиан Революционарис ин Централ Асия. – Колката: Хопе Индия Публисатионс фор Маулана Абул Калам Азад Институте, 2002;

<sup>5</sup> Hamzabekuli D. Jaditshildil jane alash ug'ymdar men terminder sozdigi. – Nursultan, 2000. Qarang:

<https://veduboxsystem.zoom.us/j/95569996411?pwd=ZWZYLzE1ZE9ucjBhM3dZUG1rYkVTQT09> (Maraş İ. Kadimci literatürdeki ceditçi tiplerleri / ÇTAS 2021; Hamzabekuli D. Mağcan Cumabay ve ceditçilik / ÇTAS 2021), <https://veduboxsystem.zoom.us/j/98316032937?pwd=NGJlYTlUW5dQzVXUmFpd0hVVi9vdz09> (Söegova A. Türkmen cedit edebiyati ÇTAS 2021), <https://veduboxsystem.zoom.us/j/96271484596?pwd=cU9JRE1yNUxsR0NxbUVnM0krbW44QT09> (Saparaliev D.) XIX. yüzyıl sonu ve XX. yüzyıl başlarında Kirgizistan'da ceditlerle ilgili belgeler / ÇTAS 2021).

kasb etadi<sup>6</sup>.

Jadid she'riyati mavzusini yoritish bo'yicha N.Afoqova, U.Hamdam, M.Tojiboyeva, Sh.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlar ham tahsinga loyiq<sup>7</sup>.

Tadqiqot natijalaridan o'sib kelayotgan yosh avlod ongida o'zbek jadid she'riyatining maydonga kelishi va taraqqiyoti tamoyillari bo'yicha qarashlarni shakllantirishda; Avloniy, Hamza, Cho'lpon lirikasidagi integral va differensial xususiyatlarni o'rgatish jarayonida nazariy va amaliy bilimlarni berishda; jamiyatda erk, adolat va ma'rifat ildizlarini yanada mustahkamlash yo'lidagi qarashlarni rivojlantirishda ilmiy-amaliy jihatdan foydalanish mumkin.

---

<sup>6</sup> Sharafiddinov O. Cho'lpon. – Toshkent: Cho'lpon, 1991. – 108 b.; Normatov U. Go'zallik bilan uchrashuv. – Toshkent: Ysh gvardiya, 1976. – 208 b.; Karimov N. XX asr adabiëti manzaralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 534 b.; G'afurov I. Mangu latofat. – Toshkent: Sharq, 2008. B. – 49-52; Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 400 b.; Turdiev SH., Qoriev B. O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi bibliografiyasi (1900-1941); Boltaboev H. XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi: fil.fan.dok... diss. – Toshkent, 1996. – 368 b.; Jalolov A. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti. Monografiya. – Toshkent: Fan, 1991. – 156 b.; Oltinbek O. Karimbek Kamiy – milliy uyg'onish shoiri. – Toshkent: Muharrir, 2018. – B.62-107; Rizayev Sh. Jadid dramasi (shakllanish davri, manbalari xususiyatlari). – Toshkent: Sharq, 1997. – 315 b.; Karimov B. Vadud Mahmudning 20-yillar adabiy tanqidchiligidagi o'rni: fil.fan.nom... diss... – Toshkent, 1995. – B.35-36;

<sup>7</sup> Afoqova. N. Jadid she'riyati poetikasi (vazn va qofiya muammolari) –T.: Fan, 2005. -140 b.; Hamdamov U. Yangi o'zbek she'riyati. –T.: “Adib” nashriyoti, 2012. 304 b.; Tojiboyeva M. Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an'analari. –T.: Fan, 2017. -270 b.; Nazarova Sh. XX asr o'zbek she'riyatining yangilanish tamoyillari (Dsc dissertatsiya). –T. 2022, 240 b.

## **I BOB. JADIDCHILIK HARAKATINING MAYDONGA KELISHI VA YANGI ADABIYOT**

### **1.1. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot**

Har qanday davrda ham, har qanday joyda ham inson yaralibdiki, uning hayoti jamiyat bilan bevosita bog'liqdir. Inson va jamiyat tushunchalari xuddi bir daraxtning tanasi va ildiziga o'xshaydi. Jamiyatning ma'lum bir davlatga aylanishi uchun eng yatakchi mezon esa bu mustaqillikdir. O'z mustaqilligiga ega bo'lmagan davlatning ertangi kuni rivoj topib buyuk davlatga aylanishi gumon. Zotan, istiqloli bo'lmagan davlatning istiqboliga ham ishonch yo'q. Shu bois, har bir davlat o'z mustaqilligini qo'ldan chiqarmaslikka harakat qiladi. Bizning ona yurtimiz ham bugungi kunga qadar katta bir yo'lni bosib o'tdi. Ona Vatanimiz tarixda goh mustaqillikning, gohida esa erksizlikning ko'chasidan yurishga majbur bo'ldi.

XVI-XIX asrdagi o'lkamizdagi ijtimoiy, madaniy hayot o'ziga xosliklardan iborat edi. Bir tomondan adabiyot, tarix, me'morchilik san'ati sohalarida katta yuksalishlarni, betakror yutuqlarni qo'lga kiritilishi bo'lsa, ikkinchi tomondan birlikning yo'qligi, o'zaro nizolarning avj olishi, tabiiy va texnika fanlariga e'tiborning yo'qotilishi O'rta Osiyo xalqlarini nafaqat jahon taraqqiyotidan orqada qolishiga, balki xalqimizning chet el bosqinchilari zulmi ostiga tushib qolishiga sabab bo'ldi.

XIX asr oxirlariga kelib xonliklar va amirlik o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar, ularning ichki ziddiyatlari mamlakatni chor hukumatining mustamlakasiga aylanib qolishi uchun yo'l ochdi. Biroq, shuni unutmaslik kerakki, har qanday pallada ham millat erki, taraqqiysi uchun jon kuydirgan chinakam yurt farzandlari topildi. O'z davrida Xorazmiy, Beruniy, Farg'oniy-u Ibn Sinolarni bergan ona tuproq XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ham xalq dardi bilan yonib-kuyuvchi taraqqiyparvar, vatanparvar shaxslarni bera oldi. Ular jadidlar edi. Jadidlar bir soniya ham millat dardisiz yashay olmaganlar. Ular jamiyatning hech bir jabhasini chetda qoldirmaslikka harakat qilishgan. Xo'sh, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot qanday edi?

Turkiston istilo qilingan dastlabki vaqtdan boshlab Rossiya imperiyasi o'lkani boylik orttirish manbai deb bildi. Hukumatning Turkistondagi siyosati Rossiya sanoatini muntazam xomashyo bilan ta'minlab turish maqsadida paxtachilik, qishloq xo'jaligining sanoatbop mahsulot beradigan sohalarini rivojlantirish, yer islohoti o'tkazish yo'li bilan natural xo'jalik rivojlanish imkoniyatlarini cheklash, sanoat mahsulotlari sotish uchun keng bozorlar yaratish, mahalliy hunarmandchilikning to'qimachilik sanoat mahsulotlari bilan raqobat qiladigan sohalarini tugatish maqsadlarini ko'zladi.

Rus millatini o'lkaga ko'chirib kelish, ularni mahalliy aholi bilan assimilyatsiya qilib yuborish Turkistonda doimiy yashaydigan rus aholisini tarkib toptirish mustamlaka siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lganligi sababli chor Rossiyasi ko'chirish siyosatini amalga oshirish uchun mablag'ni ayamadi. Bu siyosatning asosiy maqsadi mahalliy davlatchilik an'analarini tag-tomiri bilan qo'porib tashlash, milliy madaniyatni kamsitish, milliy tillarni siqish va xalq ommasini ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy qoloqlikka mahkum etib, oqibatda ruslashtirishdan iborat edi. Mustamlakachi ma'murlarning o'zlarining fikrlariga ko'ra go'yoki ular o'lkaga istilochilar sifatida emas, balki "mahalliy aholi o'rtasida ilg'or madaniyatni, yangi tartib va odatlarni o'rnatish uchun kelganlar. Mahalliy aholi esa Rossiyaning bu siyosatini mohiyatini tushunishga va baholashga qodir emas" emish. Aynan mana shu fikrning o'zi xalqni, millatni kamsitilganining yorqin ifodasi edi, aslida.

Mustamlaka ma'muriyati ma'lum bir xalqni yo'q qilish, uni tanazzul jarligi yoqasiga olib kelish uchun, avvalambor, shu millarning tili, dini, adabiyoti va san'atini yo'q qilishning o'zi yetarli ekanligini juda yaxshi anglagan edi. Zero, ma'naviyati qashshoq insonga egalik qilish juda oson ishdir. Chunki bunday inson ongida ma'naviy bo'shliq bo'ladi. Shu sababli mustamlaka ma'muriyati bu boradagi birinchi vazifani mahalliy aholi bolalarini rus tuzem maktablariga berishga ko'proq jalb etish qilib belgiladi. Chunki mustamlaka ma'murlari o'lkadagi maktablar va madrasalar faoliyatini mustamlaka siyosati yuritishda nihoyatda xavfli deb hisobladilar. Ular mahalliy adabiyot rivojlanishi va mahalliy maktablar soni ortib borishini aholini ruslashtirish yo'lidagi jiddiy bir to'siq deb bildilar.

Yuqorida keltirilgan tadbirlar, imperiyaning amalga oshirgan mustamlaka siyosati mahalliy mehnatkash aholining manfaatlariga butunlay zid kelishi, ular o'rtasida norozilik kayfiyatlarini tug'ilishida katta zamin bo'lib xizmat qildi.

1973-1976-yillardagi Po'latxon qo'zg'olonidan so'ng Turkistonning bir qancha shaharlarida ham xalq ommasining ommaviy norozilik harakatlari keng miqyosda bo'lib o'tdi. Mana shunday qo'zg'olonlardan biri 1878-yilda Mingtepada bo'lib o'tgan Yetimxon boshchiligidagi isyondir. Bu isyondan so'ng Farg'ona viloyati general gubematori viloyatdagi mahalliy aholidan g'ayriqonuniy soliq undiruvchilarni ishdan olib tashlashga majbur bo'ldi.

1885-90-yillarda Andijonning Qo'rg'ontepa uyezdidagi Darveshxon to'ra boshliq xalq harakati qurolli qo'zg'olonga aylandi. Ammo, xalq ommasining norozilik harakatlarini qurolli kuch bilan bostirishga o'rganib qolgan chor ma'murlari bu harakatlarni ham shafqatsizlarcha bostirdilar. Qo'zg'olonchilar qiynaldilar.

Mustamlakachi davlat tomonidan olib borilgan ishlar mustamlaka davlatning ijtimoiy ahvolini tobora og'irlashtiraverdi. Natijada esa oddiy xalq vakillarining hayot kechirishi qiyinlashdi. Jamiyatda chor hukumati tomonidan chiqarilgan qonunlar amal qila boshlandi. Chor hukumati chiqargan qonunlar esa deyarli batamom tabaqabozlikka asoslangan edi. Masalan, saylov to'g'risida chiqarilgan qonunga ko'ra ziyolilar, hunarmandlar kabi xalq vakillari saylash huquqidan mahrum edilar. Buning boisi esa ularning saylovchi bo'lish uchun belgilangan miqdordagi mablag'ga ega emasligida deb ko'rsatilgan. Xo'sh, bu yerda adolat qani? Yoki bu kabi toifa vakillari davlat tarkibidagi insonlar hisoblanmaydimi? Buning asl sababi yana erksizlikka borib taqaladi. Aslida, har bir mustaqil davlatda saylash va saylanish huquqi shaxsning yoshidan kelib chiqibgina belgilanadi, insonning daromadi sarhisobidan emas. Mustaqil ona O'zbekistonimizning Konstitutsiyasida ham bu belgilab qo'yilgan.

Ijtimoiy hayotni og'irlashtirishiga sabab bo'lgan yana bir holat bu mahalliy boylarning ham millatdoshlar ahvolini yaxshilanishiga yordam qilish o'rniga mustamlakachi ma'murlarning yugurdagiga aylanib qolganida edi.

Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bevosita o'lkaning madaniy hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ta'lim tizimidagi ahvol ham yanada yomonlashdi. Asli ungacha ham ta'limda tabiiy, dunyoviy fanlarga unchalik e'tibor berilmagan edi. Turkiston ta'limi XIX asr oxiri-XX asr boshlarida mustamlakachi hukumatning ta'siri ostida turli ziddiyatlarni boshdan kechirishga majbur bo'ldi.

Ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr oxirida Turkiston o'lkasida savodxonlik 19,55 foiz bo'lgan. Oktyabr inqilobigacha Turkiston o'lkasida 70000 o'quvchisi bilan 6600 ta maktab va 9000 talabasi bilan 311 ta madrasa faoliyat yuritgan<sup>8</sup>.

Davlat byudjetidan mablag' ajratilmagani sababli O'rta Osiyoda maorif tizimining rivoji uchun asosiy moddiy ta'minot xalq hisobidan qoplab borilgan. Davlat bu soha uchun juda kam mablag' ajratgan. Misol uchun, 1914-yil butun Turkiston xalq ta'limi uchun hukumat atigi ikki yarim million rubl ajratgan<sup>9</sup>.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlarga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, bola ta'lim-tarbiyasi asosan ota-onasining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatiga bog'liq bo'lgan.

Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, XX asr boshlari Turkiston Xalq maorifi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, maktab yoshidagi bolalar (8 yoshdan 11 yoshgacha) 626 044 nafar bo'lgani aniqlandi. Bulardan 1915-yil 1-yanvarigacha 40 608 nafari (hujjatda 7,4% ko'rsatilgan) davlat, zemstvo va boshqa bo'limlar hisobidan moliyalashtirilib o'qitilgan. Shuningdek, mahalliy xalqlar hisobidagi 179 rus-tuzem maktabida 3500 o'quvchi ta'lim olgan<sup>10</sup>.

O'z davrida jamiyatda farzandlarning ta'lim olishga imkoniyati yo'qligidan, balki vaqti ham yo'qligidan kuyingan Cho'lpon bu jumalarni keltiradi: "Bitta maktab ham bor dedilar, lekin uning o'zidan ko'ra ko'proq "oti" bor, shekillik... Ko'klamdan tortib to kuzgacha maktab ta'til ekan, dehqonlar bolalarini faqat qishdagina o'qita olurlar ekan". Fikrni maktab xususida davom ettirar ekanmiz, mana bu haqiqatga yo'g'rilgan satrlarga e'tibor qaratmay iloj yo'q: "Lekin birgina maktab bor. Binosi juda yaxshi, burun rus yerlik maktabi bo'lgan. U ham biz borganda remont qilinmagan edi.

---

<sup>8</sup> [wikipedia.org/wiki/Medrese\\_Sredney\\_Azii](http://wikipedia.org/wiki/Medrese_Sredney_Azii)

<sup>9</sup> Gazeta Uzbekistanskaya pravda. 15-oktyabr 1930 g. №236 (498)

<sup>10</sup> O'zMA. Fond R-34, ro'yxat-1, ish-2167 204 varaq.

Remont uchun baladiyada pul yo‘q, muallimlarning ta‘minoti uchun maorif shu‘basida pul yo‘q, maorif shu‘basiga berish uchun Maorif komissarligida pul yo‘q. Shunday qilib, birgina maktabning ham taqdiri qaltirab turadir. Xalq ta‘minotiga o‘tkazganlar, xalqdan pul yig‘ish esa qiyin...”<sup>11</sup>.

Yoshlar taqdiriga kuyingan Cho‘lponni o‘zbek ayoli qismati befarq qoldirmasligi tabiiy hol edi. Shu bois ham Cho‘lpon bunday yozadi: “Bechora o‘zbek xotuni! Senga 12 yoshingda kafan kiygizgan janoblar tug‘ilgan kuningdayoq seni irimlarning bema‘ni quchoqlariga irg‘itadurlar! Bilmaysen. Bilmaysen. Bilmaganing uchun sen hali ko‘p yillar shu irimlar uchun eng toza umidlaringni so‘ldirgaysen! Sening bilmog‘ing, o‘rganmog‘ing uchun keng yo‘l ochilgan shu zamonda senga ochilgusi maktablarning ta‘minoti uchun mahalliy mablag‘ (местное средство) ning ko‘payishini tilaylik!”<sup>12</sup>.

“Istiqbol uchun kurash” esa o‘zbek qizining ham o‘qimoqqa, dunyo kezib ilm izlamoqqa haqli ekanligi haqida bunday deydi: “Qizil bayroq”ning so‘ng sonlaridan birida Ovrupog‘a o‘qimoq maqsadida bir o‘zbek qizining ketmakka hozirlanganlig‘i yozilgandir. O‘zbek qizi hanuz yangi usul maktablarga hali yolchib kira olgani yo‘q. Hatto, o‘zbek qizining o‘zida pardasi, xohishi-da kishani bo‘lmagan erkak bolalari ham yuqori maktablarning muhtasham sahnalarida ko‘plashib yura olgani yo‘q. Hali o‘zbek qizi ota-onaning tilsiz qo‘g‘irchog‘i bo‘lishdan qutula olgani yo‘q”<sup>13</sup>. Maqolani hozir hayotimizda bo‘layotgan voqealar tarixda ham yuz berganini, shu sababdan ham tarixni o‘rganib xulosalar chiqarib yashash zarurligini ta‘kidlashdan boshlagan Cho‘lpon bir vaqtlar o‘zbek yigitlari (mullabachchalari) Hindistonga, Misr, Arabistonlarga qadar borib ilm o‘rganganliklarini, Buxoro madrasalari o‘zbek-turkistonlik yosh mullabachchalar bilan to‘la bo‘lganini eslaydi.

Oktyabr inqilobidan so‘ng Turkistonda maktab va madrasalar qisqarib borganini kuzatish mumkin. Bularning barchasi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot darajasi bilan bog‘liqdir. Doim ijtimoiy-iqtisodiy hayot madaniy hayotga ta‘sir o‘tkazgan.

<sup>11</sup> Cho‘lpon. Asarlar. 4 jildlik. –T.: Akademnashr, 2016. –B. 232.

<sup>12</sup> Cho‘lpon. Asarlar. 4 jildlik. –T.: Akademnashr, 2016. –B. 44.

<sup>13</sup> Cho‘lpon. Asarlar. 4 jildlik. –T.: Akademnashr, 2016. –B. 193

Tarixiy manbalardan ma'lumki, ilgari Turkistonda mahalliy xalq yozish va o'qish uchun fors-tojik va turkiy-o'zbek tillardan keng foydalangan. Maktablarda fors-tojik, arab va turkiy-o'zbek tili asosiy o'qish tili bo'lgan. Fors-tojik, arab tillari asrlar davomida adabiyotda, xususan, she'riyatda juda keng qo'llanilib kelinib, mustahkam o'ringa ega bo'lib ulgurgan edi. Chunki, she'riyatning vazn xususiyatlari shinga moslangan edi. Ammo ruslar o'lkani o'z hukmronligi ostiga olganidan so'ng barcha savdo-sanoat va davlat ishlari rus tilida olib boriladi.

Chor Rossiyasi xalq maorifi noziri D.A.Tolstoy shunday degan edi: "Bizning vatanimizda yashovchi barcha begona xalqlarning ma'lumotli bo'lishining oxirgi maqsadi, shubhasiz ularni ruslashtirishdan iboratdir"<sup>14</sup>.

Ruslashtirish siyosatiga zo'r bergan rus hukumati mahalliy o'qituvchilar ustidan nazorat kuchaydi, ularning mustaqil ish yuritishga imkon bermadi. Mahalliy maktablar hech qancha vaqt faoliyatda bo'lmay turib yopildi.

Toshkentda dastlabki rus maktabi 1866-yili ochiladi. Bunday maktablarda ruslar bilan birga mahalliy bolalar ham qabul qilinardi. 1876-yil Toshkentda erlar va xotin-qizlar gimnaziyalari, 1870-yil o'quvchilar seminariyasi ochildi. Bularda diniy bilimlar o'qitilmasdi, shuning uchun mahalliy bolalar kam edi.

1884-yil 19-dekabrda Toshkentning eski shahar qismida birinchi rus tuzem maktabi ochildi. Boshqa joylarda ham ochila bordi va 1904-yilda esa ularning soni 57 taga yetdi.

Rus tuzem maktablarida o'quvchilarga rus muallimi rus tili, arifmetika va boshqalarni o'rgatar, buning uchun o'qish vaqtining yarmi ajratilar, qolgan yarmida esa musulmon domla diniy darslar o'tardi. 1903-yil Toshkentda qizlar uchun rus tuzem maktabi ochildi. Lekin uzoq faoliyat olib bormadi, tezda yopildi.

Chor hukumati O'rta Osiyoda feodal-patriarxal tuzumni saqlab qolib, xalqni qashshoqlikda, qullikda tutishga harakat qiladi. Mahalliy xalqning maorifi, adabiyoti, ozodlik g'oyalarini ilgari surish vositalari rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan choralarni ko'rdi. Mahalliy amaldorlarning zulmi ham shu davrlarda kuchayadi.

---

<sup>14</sup> <https://elib.buxdu.uz/https://elib.buxdu.uz>

O'tkazilayotgan zulmlar, ommaning ma'rifiy qashshoqligi, nodonlik, maktabning inqirozi, madaniy ortga ketish bularning hammasi endilikda chidab bo'lmaydigan hayot tarzi bo'lib qolgan edi. Shuning uchun jadidlar birlashib, islohat, o'zgarishlar orzusini qila boshladilar. Ular avvalo, maktab-maorifini, keyin esa ijtimoiy tuzumni isloh qilish g'oyalarini olg'a surdilar.

Jadidchilik ijtimoiy tafakkurning alohida bir oqimi sifatida XIX asrning 90-yillarida maydonga keldi. XIX asrning oxirlariga kelib o'zbek ma'rifatparvarlarining butun bir avlodi yetishib chiqdiki, bular jadidlar edi. XX asr tarixida o'chmas iz qoldirgan bu avlod xalqimizning umumiy ma'rifatida, ijtimoiy-siyosiy yuksalishida va yangi turmushga tayyorlashda buyuk xizmat etdi. XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan va taraqqiy etgan falsafiy-estetik tafakkur yo'nalishini asosan jadidchilik harakati belgilagan edi. Jadidlarning falsafiy-estetik va pedagogik qarashlarining O'rta Osiyoda keng tarqalishi va katta ijtimoiy hodisaga aylanishida Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Cho'lpon, Abdulla Avloniy singari buyuk shaxslarning xizmati katta bo'ldi. Jumladan, jadid-ma'rifatchilari o'z dasturida millat va mamlakatning dunyoviy taraqqiyoti yo'lida to'siq bo'lib kelayotgan diniy fanatizm va qoloq rasm-rusumlarga qarshi chiqish, eski maktablarni yangi o'quv usullari bilan isloh qilish, xalq ommasining savodini chiqarish maqsadida matbuot masalalariga jiddiy e'tibor qaratib, yangi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivoji ustida qayg'urish; Yevropa madaniyatidan orqada qolib ketmaslik uchun zamonaviy milliy teatr tomoshalarini tashkil etish; xotin-qizlarning jamiyatdagi va oiladagi ahvolini o'zgartirish maqsadida turli ijtimoiy islohotlar yo'lini qidirish singari muammolarni o'rta tashladilar.

Jadidlar o'rta asr o'qitish usuliga asoslangan ta'limga qarshi chiqib, yangi usulda o'qitishni, qator dunyoviy fanlarni o'quv jarayoniga kiritishni talab qildilar. Ular ilm-fan, texnika, teatr va matbuotni yuksaltirishga harakat qildilar.

Jadidchilikning harakatining asoschi va eng yetakchilaridan biri qrim-tatar ma'rifatparvarlaridan bo'lgan bog'chasaroylik Ismoilbek Gaspirali (1851-1914) hisoblanadi. U "usuli savtiya" ni boshlab bergan turkiy jadidchilik harakati namoyondalari yo'l boshchisi edi. 1883-yili "Tarjimon" gazetasini chiqara boshlaydi.

1884-yili 12 bolani “usuli jadid”da o‘qita boshlaydi. Bolalar 40 kunda savod chiqarishadi. Imtihon o‘tkazadi. Ular uchun “Xujai siben”, “Bolalar muallimi” birinchi darsligini tuzadi.

Yangi usul maktablarda quyidagilarga e’tibor qaratilgan edi:

- sinfda bolalar 30 dan oshmasligi;
- 2 marta yoz va qishda bolalarni maktabga qabul qilish;
- bir muallimda 3-4 sinf bo‘lishi;
- dars 5 soatdan oshmasligi, har darsdan so‘ng 10 daqiqa tanaffus;
- juma va bayram kunlari dam olinishi, yozda ta’til bo‘lishi;
- dars zerikarli bo‘lmasligi kerak edi, bolalarni urish, so‘kish mumkin emas.

Chor hukumati bunday maktablar ochilishiga qarshi edi, ularni qattiq nazorat qilardi. Bunday maktab bolalarni 6 oyda savodli qilib chiqarardi. Bunga eski maktab domlari, mulla, eshonlar ham qarshilik qilardilar.

Jadidlar xalqqa ma’rifat va madaniyat tarqatish yo‘lini maktab va madrasalarni isloh qilish, yangi usul maktablar ochish, tijoratni rivojlantirish, gazeta va jurnallar chiqarish, teatr, kutubxonalar barpo etishdan iborat deb bildilar.

Ular “Taraqqiy” (1906), “Samarqand” (1913-15), “Sadoyi Turkiston” (1914-15), “Oyna” (1913-15), “Buxoroyi Sharif” (1912-13) va boshqa matbuot organlarini tashkil qildilar. O‘z hisoblaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalari chiqardilar. Teatrchilikka asos solindi. Ko‘plab teatr gruppalari paydo bo‘ldi. Drammaturgiya maydonga keldi. Publitsistika rivojlandi.

Jadidlar maktab va madrasalarda diniy va ilmiy-dunyoviy ilmlarni birga qo‘shib olib borishga harakat qildilar.

Jadidlarning yirik vakillaridan: Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Siddiqiy, Aziziy, Shakuriy, Avloniy va boshqalar bo‘lib, ularning ayrimlari faoliyati bilan tanishsak.

Abduqodir Shakuriy (1875-1943) 1901-yilda Samarqandda o‘z qishlog‘ida yangi usuldagi maktab tashkil qiladi. Doska va partalar yasattiradi. Tatar tilidagi darsliklardan foydalaniladi. Shakuriy yilda bir marta umumiy imtixon uyushtirib, ota-onalar oldida o‘quvchilar bilimni namoyish qildirar edi.

Shakuriy ona tilida darsliklar zarurligini tushunib, bolaning yoshiga mos tarzda, axloq-odob, turmush qoidalaridan dastlabki

ma'lumot berishni ko'zda tutuvchi darslik tuzishga kirishadi. Birinchi alifbe kitobi "Raxnomai savod" (Savod chiqarish rahbari)ni yaratadi. Kitobda so'zlar bo'g'inlarga bo'lib ko'rsatilgan, oxirida o'qish uchun kichik xrestomatiya berilgan.

1907-yili Shakuriyning 2-kitobi "Jameul hikoyat" (Hikoyalar to'plami) yoziladi. U boshlang'ich sinf 2-sinfi uchun xrestomatiya tarzida bo'ladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1874-1919) adabiyot, tarix, geografiya, islom tarixi, siyosatshunoslik bilan shug'ullanadi. 27 yoshida Makkaga borib, hoji va mufti unvonlari bilan qaytadi.

U o'lkada usuli jadid maktablarining eng birinchi nazariyotchisi va amaliyotchilaridan, jadidchilikni boshlaganlardandir.

U "Behbudiy nashriyoti"ni tashkil etib, unda darsliklar, Turkiston, Buxoro, Xiva xaritasini bosib chiqaradi. Samarqandda kutubxona va qiroatxona ochishga boshchilik qiladi. Drammaturgiya sohasida qalam tebratadi.

Behbudiy 1913 yildan "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnalini chiqara boshlaydi.

U til o'rganishga yoshlarni da'vat etadi. Xususan, o'zining "Ikki emas, to'rt til lozim" sarlavhali maqolasida yoshlar uchun til o'rganish naqadar zaruriy ehtiyoj ekanligini ochib beradi. Zamona talabiga ko'ra jamiyatga diniy ilmlar va dunyoviy ilmlar ulamolari kerak deb biladi. Behbudiy o'z maktabi uchun o'quv reja va dasturlar ishlab chiqadi.

U ilmning jamiyat rivojidadagi rolini yaxshi tushungan va yoshlarni ilm o'rganishga chaqiradi, masalan, o'zining "Padarkush" dramasida ham ilmsizlikni qoralaydi.

Munavvar Qori Abdurashidxonov (1872-1931) Toshkent shahrida ziyoli oilasida tug'ilgan, onasi otinoyi bo'lgan.

1901-yili birinchi jadid maktabini ochadi. Yangi maktablar uchun tovush usulida "Adibi avval" (1907), "Adibi soniy" darsliklarini yozadi. 1906-yili Ismoil Obid muharrirligida "Taraqqiy" gazetasini tashkil qiladi. Darsliklari qayta-qayta nashr qilinadi.

Munavvar Qori o'rta maxsus va oliy ta'lim asoschisi sifatida 1916-yil 9-aprelida o'z uyida to'plangan jadidlar bilan birga Turkiston xalq dorilfununining musulmon bo'limini tashkil etish yuzasidan komissiya tuzadi. O'zi raislik qiladi. 3 bosqichdan iborat

dastur tuziladi. O'qituvchilar soni 190 ga yetadi. Ular orasida Fitrat, Kamol Shams, Haydar Shavqiy va boshqalar bor edi.

Shu munosabat bilan Toshkent davlat universitetiga Milliy universitet nomi berildi.

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat (1886-1938) Buxoroda tug'iladi. Dastlab maktabda, so'ngra Mirarab madrasasida o'qiydi. U adabiyot, tarix, falsafani chuqur o'rganadi. 1922-23 yillarda Buxoro xalq maorifi noziri bo'lib, chet ellarga o'qishga talaba va o'quvchilar yuborishga rahbarlik qiladi. "Rahbari najot" asarida ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor beradi, fanlar tasnifini yaratadi. O'zining didaktik qarashlarini bayon etadi. "O'quv" darsligi ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, turmush odobiga oid ko'plab mavzular berilganki, ulardan hozirgi tarbiya ishlarida ham keng foydalanish mumkin. Fitrat birinchi o'zbek professori bo'ldi.

Abdulla Avloniy (1878-1934) Toshkentda hunarmand oilasida dunyoga keladi. Maktabda, Abdumalikboy madrasasida o'qiydi. Yoshligidan, asosan, 1894-yildan boshlab she'rlar yozadi.

1904-yili tinimsiz harakatlardan so'ng Mirobodda yangi usulda maktab ochadi. 1907-yili uning muharrirligida "Shuhrat" gazetasi chiqa boshlaydi. 1909-yili "Jamiyati xayriya" ochib, bolalar o'qishi uchun pul yig'ib, maktablarga tarqatadi. Maktabining dovrug'i keng tarqaladi, chor hukumati talabi bilan o'lka ma'muriyati maktabini 1908-yili yopadi.

1909-yili Avloniy Degrez mahallasida maktab ochadi. Darsliklar yozishga kirishadi. 1909-1917-yillarda uning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni", "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" toplami nashr etiladi.

1913-yili yozilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" axloqiy va ta'lim-tarbiyaviy asar bo'lib, unda "insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm-axloq" haqida fikr yuritiladi. Bola kamolotida tarbiyaning roli juda kattaligini tushunadi va tarbiya "yo hayot yo mamot masalasi" deb biladi.

Avloniy ma'rifatparvarlik faoliyatini boshqa sohalarada ham davom ettiradi. U 1913-yili o'zbek teatr gruppasi "Turon"ni tuzadi. O'zi dramalar yozib beradi. "Turon" gazetasini chiqaradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) Qo‘qonda tabib oilasida tug‘iladi. Maktab, keyin madrasada o‘qiy boshlaydi. Lekin madrasadagi ta’limdan qoniqmay, mustaqil ravishda klassiklarimiz asarlarini o‘rganadi.

16 yoshdan yozuvchilikni boshlaydi. 1911-yili Qo‘qonning Hojibek guzarida maktab ochib, yetim va kambag‘al bolalarni o‘qitadi. Kambag‘al bolalarni o‘qiy olishlari uchun “Yordam jamiyati” tashkil etadi. Kattalar uchun kechki kurs tashkil qiladi. Bunga 16 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan kishilarni qabul qiladi.

Chor hukumati amaldorlari Hamzaning maktabini xavfli deb topib, uni yopadi va o‘zini ta’qibga oladi. 1913-1914 yillarda chet ellarga ketadi.

1914-yili qaytib kelgach, kambag‘allar uchun tekin maktab ochishga harakat qiladi. 1914-yil 4-oktabrda “Yetimlar maktabi” ochadi, lekin bu tezda yopiladi.

Hamza Marg‘ilonga ketadi va u yerda bir kishining hovlisida 1915-avgustda yangi usul maktab ochadi, muallimlar tayyorlaydigan kurs tashkil etadi.

Hamza 1914-yili “Birinchi sinf talablari uchun maxsus yengil adabiyot” kitobi va 2- sinflar uchun “O‘qish kitobi” tuzadi.



Hamza 1918-yildan Farg‘onada o‘qituvchilik ishini davom ettiradi. U o‘z pedagogik faoliyatida va ijodida xotin-qizlarning ilm olishiga, jamiyat ishlarida qatnashishiga jiddiy e’tibor beradi.

Hamza mohir pedagog, yozuvchi, kompozitor sifatida xalqimizga sidqidildan xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, bu buyuk Turon zamini tarix va taqdirlari tutashgan turli xalqlarni birlashtirgan makon. Buning zamirida yagona iqtisodiy manfaat bilan birga, siyosiy va madaniy qarashlarning mushtarakligi turadi. Chunki, Turkiston o‘lkasi barcha zamonlarda ham savdo markazi, ham ilm-ma’rifat va san’at o‘chog‘i vazifasini o‘tagan. Biroq ne-ne buyuklar-u daholarga beshik bo‘lgan bu zamin XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mustamlakaga aylanib qoldi. Ana shunday og‘ir va sinovli mustamlaka davrida ham chinakam yurt farzandlari vatan mustaqilligi, ravnaqi yo‘lidagi harakatlarini tashlamadilar. Ular millat madaniyatini yuksaltirish, yosh avlod hayotini mustaqillik deb atalmish buyuk ne’mat orqali kafolatlashni niyat qilgan edi. Ular ham nazariy, ham amaliy faoliyatda jadal odimladilar. Bu yo‘ldagi barcha to‘siqlarga qarshi turishga harakat qilishdi. Jadidlar amalga oshirgan ishlarga misol qilib, ularning maktab ochishgani, bosmaxonalarni ko‘paytirishgani, teatrlar ochib u yerda millatni ma’rifatga chorlovchi dramalarni sahlashtirishgani va shu orqali o‘qib tushuna olmaydigan savodsiz xalq vakillarini ko‘rib ilm olish yo‘liga kirishni istaganliklarini aytishimiz mumkin. Ko‘plab jadidlar maktablar ochishdi. Ularning har biri ochgan maktablariga yangilik kiritishga, talabalar uchun qulaylik yaratishga katta ahamiyat qaratib, ularni tezroq savodli qilishga intilganlar.

## **1.2. Milliy adabiyotining yangilanishi**

Jamiyat rivoji uning adabiyoti takomiliga qarab belgilanadi. Bugungi davlatimizning ertangi egalari yoshlardir. O‘tib kelayotgan yosh avlodni milliy ma’naviyatimizni anglash ruhida tarbiyalashda esa adabiyot asosiy qurol vazifasini o‘taydi. Adabiyot millat taqdirini har jihatdan tasvirlab bera oladi, bu xoh ma’naviy hayot bo‘lsin, xoh siyosiy. Qadim-qadimdan rivojlanib kelgan turkiy adabiyotimiz juda boydir. Ayniqsa, Alisher Navoiy o‘z davrida turkiy til, turkiy adabiyot takomili yo‘lida o‘ziga xos jonbozlik ko‘rsatgan. So‘z mulking sultoni – Alisher Navoiyning bu harakatlari turkiy adabiyotni yanada jonlantirib yubordi. Alisher

Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning o‘ziga xos xususiyatlarini aniq dalillar bilan ko‘rsatib bera oldi.

Xonliklar davrida shakllangan va rivojlangan Toshkent, Xiva, Buxoro, Qo‘qon adabiy muhiti ta’sirida yaratilgan adabiyot namunalari madaniyat rivojining ko‘rinishi bo‘ldi. Madaniy-ma’naviy hayot xonliklardagi siyosiy-ijtimoiy ahvolga qarab turli notekisliklar bilan davom etdi. Ayniqsa, Xivada, Buxoroda, Samarqandda bir qancha madrasa, xonaqohlar qurildi, turli hududlarda o‘nlab shoirlar, tarixchilar, xattotlar, tazkiranavislar, taijimonlar yashab, faoliyat ko‘rsatdilar.

Qo‘qon va Xiva xonliklarida davlat rahbari xonlarning adabiyotga ham rahnamolik qilishi natijasida bu hududlarda adabiy muhitlar yaratildi, saroy adabiy markazlari vujudga keldi. Xivada Feruz, Qo‘qonda amir Umarxon – Amiriy boshchiligidagi adabiyotga e’tiborning kuchayishi natijasi o‘laroq badiiy ijod sohasida yangilanish va takomillashish boshlandi. Bu davrda tarixnavislik, tazkirachilik yo‘nalishlarida sezilarli o‘sish bo‘ldi.

XIX asrning o‘rtalariga kelib O‘rta Osiyo mintaqasida tarixiy-ijtimoiy vaziyatda tub o‘zgarish bo‘ldi. 1876-yili chor Rossiyasi bosqini tufayli Qo‘qon xonligi tugatildi, uning hududlarida Turkiston general-gubernatorligi hukmronligi o‘rnatildi. Natijada esa endigina rivojlanish yo‘liga kirgan saroy adabiy muhiti barham topdi. 1868-yili Buxoro, 1873-yili esa Xiva xonliklari ham Rossiyaga taslim bo‘ldi va ba’zi shartlar evaziga ma’lum darajada mustaqillikni saqladi, lekin ko‘p jihatdan Rossiyaga tobe’ bo‘ldilar.

Xorazmda Muhammad Rahim II Feruz hukmronligi davrida (1863-1910) madaniyat, adabiyot yuksaldi. Feruz, Ogahiy, Komil, Tabibiy, Bayoniy kabilar ishtirokida she’riyat, tarixnavislik, xattotlik, musiqa, tarjimachilik, noshirlik sohalarida kuchli rivojlanish ko‘zga tashlandi.

Buxoro amirligida amir Muzaffarning o‘g‘li amir Abdulahad – shoir Ojiz hukmronligi davrida (1885-1910) iste’dodli tazkiranavis, adib va shoirlar (Rahmatullo Vozeh, Mirza Azim Somiy, Sahbo, Ahmad Donish, Salimiy kabilar) yashab, ijod etdilar.

Qo‘qon adabiy muhitida Umarxon buyrug‘i asosida Fazliy va Mushriflar tomonidan tuzilgan “Majmuat ush-shuaro” nomli tazkira XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Qo‘qonda yashab ijod qilgan

ijodkorlar haqida muhim ma'lumotlar beruvchi qimmatli asardir. "Devoni Huvaydo", "Rohati dil" asarlarining muallifi Xo'janazar Huvaydo, "Hapalak", "Ta'rif viloyati Qurama" kabi she'rlar ijodkori Maxmur, hajviyotda mohir shoir Gulxaniy, Fazliy, Amiriy va boshqalar bu davrning ko'zga ko'ringan ijodkorlaridir. Ular qatorida Uvaysiy, Nodirabegim, Dilshodi Barno kabi ijodkor ayollarning ham sezilarli o'rni bor. Uvaysiy adabiyotda muhim o'ringa ega shoira edi. U har jihatda jasoratli bo'lgan. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon Uvaysiy haqida maqola yozgan. Cho'lpon "Yorqin turmush" jurnalining 1936-yil 4-5-qo'shma sonida chop ettirgan "Uvaysiy" nomli maqolasida Jahon otin Uvaysiyning jasorati va iste'dodi haqida yozadi. Maqolada shoiraaning asli Marg'ilondan ekanligi, u yerdan xon saroyidagi shoirlar bazmida qatnashish uchun Qo'qonga kelganligi, uni saroyga kiritishmaganda qari kampir qiyofasida kelgani va shoirlar bazmiga kiritishlari uchun "Zaboningni" deya boshlanuvchi quyidagi ikki misrani yozib kiritgani haqida yozilgan:

*"Meni "Latazg'lu" deb mahrum etma, bog'bon hargiz,  
Azal degani bag'rim qonini to'kkan bu gulzora"*<sup>15</sup>.

Cho'lpon Uvaysiy iste'dodi haqida so'z ketganda uning mashhur "Anor" chistonini keltirish orqali uning badihago'ylikda ham tengsiz ekanligini ta'kidlaydi: "Jahon otinga bir kun dasturxon ustida anorni ko'rsatib, shu to'g'risida bir narsa demakni iltimos qilganlar. Jahon otin o'sha minutning o'zida anor to'g'risida to'rt yo'llik bir she'r yozgan. Badihago'ylik (ekspromt) yo'li bilan yozilgan bu to'rt yo'llik bayt anorni shunday go'zal va san'atkorona tasvir qiladi:

*Bul na gumbazdir, eshigi, tuynugidan yo'q nishon,  
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdir makon.  
Sindirib gumbazni qizlar holidan olsam xabar:  
Yuzlariga parda tortig'liq, turarlar bag'ri qon"*<sup>16</sup>.

XIX asrning ikkinchi yarmida ma'rifatparvarlik faoliyati keng yoyilib, qator ziyolilar pedagogik g'oyalar bilan chiqdilar. Muhammad Amin Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy (1850-1903) o'zining

---

<sup>15</sup> Cho'lpon. Asarlar. 4 jildlik. –T.: Akademnashr, 2016. –B. 120.

<sup>16</sup> Cho'lpon. Asarlar. 4 jildlik. –T.: Akademnashr, 2016. –B. 121.

sayohatnomalarida, hajviy she'rlarida ilmsizlik, nodonlik, tarbiyasizlikni qoralaydi, ilm-ma'rifatni ulug'laydi.

“Tanobchilar”, “Zavodchi boy ta'rifida”, “Dodhoxim” she'rlari, “Sayohatnomalarida” kishilarning turli xulq-atvorlarini ko'rsatadi. Turli joydagi insonlarning xarakter va dunyoqarashlarini ochib beradi. Muqimiy ijodida ma'rifiy, didaktik, hajviy hamda ijtimoiy lirikaning ham ajib namunalarini ko'rishimiz mumkin. Muqimiy serqirra qalam sohibi edi. U haqiqiy xalqparvar bo'lganiga uning she'rlari isbotdir. Masalan:

*“Zamona ahlini bir xayli bordur hayf insonliq,  
Shul insofi bilan ul aylagay da'vo musulmonliq,  
Birovga hiyla-yu makr aylayur, af'oli shaytonliq,  
Bo'lur xursand o'z qilg'on ishiga buyla nodonliq,  
Berib qiz keksa boyga faxr ila xesh-u tabor o'lmish”<sup>17</sup>.*

Shoir bu “Darig'o, mulkimiz...” deb boshlanuvchi muxammasida ijtimoiy hayotni yorqin bo'yoqlarda ko'rsatib bera olgan. Xususan, yuqorida keltirilgan band Muqimiyning xalq dardi bilan yashagan ijorkor bo'lganining ifodasidir. Xo'sh, shoir bu misralarda nima deyapti? Jamiyatdagi insonlar insonlikda, insofdan yiroqlashgani holda yana musulmonlikni talab qilayotganini shoir mantiqsiz ish deb biladi. Hali o'n gulidan biri ochilmagan yosh qizlarni ularni istaklariga zid ravishda musulmonlikdan chiqqan keksa insonlarga berishlari esa jamiyat halokatining, bu millatda gumanizm (insonparvarlik)ning umuman unutilganidan dalolatdir.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat (1858-1909) ham ma'rifatparvarlardan biri bo'lgan. U yoshligidan juda iste'dodli va serfahm bo'lgan, keyinchalik esa bir qator chet davlatlarda safarda bo'lgan. U dunyo kevgan keng mulohazali shoir edi. Furqatning “Ilm xosiyati”, “Gimnaziya”, “Teatr haqida majmua”, “Vistavka xususida” she'rlarida ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiyani ulug'laydi, u madaniyat, san'at, hunar, odob, aql, texnika taraqqiyoti hammasi ilmdandir deb biladi. Furqat o'zbek demokratik adabiyotida gumanistik lirikaning boyishi va rifoqlanishiga katta ulush qo'sha olgan shoirdir. Lirika uning ijodida hajm jihatidan ham, mazmun va badiiylik jihatidan ham salmoqli o'rin tutadi. U klassik

---

<sup>17</sup> Muqimiy. Saylanma. — T.: “Ma'naviyat”, 2009. B 70.

poeziyamizning g‘azal, muxammas, musaddas, masnaviy, maktubot, tarji‘band v.b. shakllarida ajoyib va go‘zal asarlar yaratdi.

Furqat mustamlaka tuzumidagi adolatsizliklarni she‘rga soladi. Millatning ma‘naviyati, ilm-fani insoniyatning baxt-saodatini va istiqbolini yorita olishini ta‘kidlaydi.

Ahmad Donish (1827-1897) o‘zbek va tojik xalqining mashhur mutafakkiri, olimi va faylasufi edi. U “Navodir-ul vaqoye” (Nodir voqealar), “Buxoro amirlarining tarjimai hollari”, “Yulduzlar tasviri”, “Globusdan foydalanish yo‘llari” asarlarini, shuningdek, “Mir‘oti ibrat” (Ibrat oynasi (1912), “Anjumani arvoh” (1912), “Ganjinai hikmat” (1914), “Aynul adab” (Odob ko‘zi (1915)) she‘riy to‘plamari chiqadi. She‘rlariga “Ajziy” deb taxallus qo‘yadi. O‘zbek va tojik tillarida yozadi. Ta‘lim-tarbiyadagi eski usullarga qarshi chiqadi.

Sharq va G‘arb mutafakkirlari, faylasuflarining ijtimoiy qarashlarini chuqur o‘rgangan Ahmad Donish “Kishi o‘z Vatanini himoya qilsagina, o‘z xalqi bilan birga bo‘lsagina u doim barhayotdir”<sup>18</sup> – deydi. Ahmad Donish bu fikrlarini o‘z hayoti uchun dasturilamalga aylantirdi, buni amalda isbotladi va barhayot siymolardan biriga aylana oldi.

Muqimiy, Furqat, Ahmad Donish kabi bir qator ma‘rifatparvarlar ijod qilgan davr adabiyotimizda ma‘rifatparvarlik adabiyoti deb nomlangan.

1905-1917-yillarda mamlakatimizda Zavqiy, Avaz O‘tar, Haziniy, Miskin, Yusuf Saryomiy singari jadidchilik harakatiga qatnashmagan bo‘lsa-da, tanlagan yo‘liga ko‘ra jadidlarga yaqin turgan yozuvchilar ham bor edi. Bunday ijodkorlarning aksariyati ma‘rifatchilik motivlarini aks ettirganlar.

Ma‘rifatparvar ijodkorlar g‘oyalarini anglab, yanada yuksaltirganlar esa jadid adiblaridir. Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Is‘hoqxon Ibrat kabilar chinakam jadidchilik adabiyotini yaratishda jadal odimladilar. Ular turkiy adabiyotning barcha turlarida qalam tebratishdi. Nasrni rivojlantirishdi, o‘zbek romanchiligini boshlab berishdi, (birinchi o‘zbek romani Abdulla Qodiriyning

---

<sup>18</sup> Bilimlar.uz

“O‘tkan kunlar” romani ekanligi barchaga ma’lum), lirikaga yangi ruh kiydirishdi, dramatik turni o‘zbek adabiyotiga (o‘zbek adabiyotidagi birinchi drama Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi hisoblanadi) olib kirishdi. Jamiyatda teatrning yaratilishi va mustahkam o‘ringa ega bo‘lishi bilan dramalar soni ko‘paydi.



Adabiyotning ijtimoiylashuvi kuchaydi. Bu holat barcha adabiy turlarda bo‘y ko‘rsatdi. Nasrda yangi ijtimoiy muhit yaratishga urg‘u berildi. Dramalarda ilmsizlikning fojiali yakunini ochiq ko‘rsatish boshlandi. Shu jumladan, lirikada juda katta o‘zgarishlar amalga oshirildiki, she’riyatdagi yangilanishlar to‘g‘risida keyingi boblarimizda batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

XX asr dunyo tarixida juda katta o‘zgarishlarga, inqiloblarga boy bo‘lganligi bilan ham xarakterlidir. Bu davr o‘ziga xos tabiatga ega bo‘ldiki, bu bir tomondan, insoniyat hayotida ijtimoiy-siyosiy hayotdagi keskin burilishlar natijasida hayotning og‘irlashuvi bilan kechishi, ikki jahon urushining davlatlar hayotini izdan chiqarishi bilan, ikkinchi tomondan esa mana shu ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotdagi o‘zgarishlarning salbiy oqibatlariga qarshi kurash yo‘lida kelib chiqqan yangilanisharga boy bo‘lgan bilan ifodalanadi. Xuddi shunday yangilanishlar, ayniqsa, adabiyotda ham yaqqol namoyon bo‘ldi.

Professor Naim Karimov o‘tgan XX asr haqida quyidagilarni yozgan edi: “XX asr – insoniyat tarixidagi eng ulug‘ asrlardan biri. Bu asrda qanchalik ko‘p qon to‘kilgan, qanchalik nohaqliklar va adolatsizliklar ro‘y bergan bo‘lmasin, insoniyat xuddi shu asrda kelajak sari katta qadam tashladi... Bu asrda sodir bo‘lgan barcha voqealar insoniyat tarixining ajralmas tarkibi. Ularning bizlarga maqbul bo‘lmagan qismlarini yoddan chiqarishga, tarixdan o‘chirishga urinish bema’nilikdir... XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o‘rnatdi. Bunday aloqa adabiyotimizning avvalgi bosqichlarida bo‘lmagan. XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyatni o‘z ortidan yetaklab, ularni hurriyat va milliy taraqqiyot manzillariga olib borishga intildi va bu intilishda muayyan yutuqlarga erishdi”<sup>19</sup>.

---

<sup>19</sup> XX asr mening taqdirimda. –“Jahon adabiyoti” jurnali. T.: 2001, B 24.



Ha, ustoz akademik Naim Karimov ta'kidlaganlaridek, XX asr adabiyoti mumtoz adabiyotdan farq qila boshladi, u yangi adabiyot deb ataladigan yangi bir adabiy davrning yalovbayrog'i bo'ldi. Atoqli munaqqid Ozod Sharafiddinov: "XX asrda bizda jahonning har qanday yuksak talablariga javob bera oladigan yuksak adabiyot yaratildi, deb baralla aytishimiz mumkin. Hikoyachilik, qissachilik, romannavislikda ham, she'riyatda ham, dramaturgiyada ham buning isbotini o'nlab uchratish mumkin"<sup>20</sup> – deb yozgan edi.

XX asr o'zbek adabiyoti yangi o'zbek adabiyoti, deb ataladi. Chunki, bu davrga kelib odamlarning dunyoni tushunish tarzi, badiiy didi, olamni estetik idrok etish yo'sini o'zgardi. Adabiyotning obrazlar tizimi ham, ifoda tarzi ham, qahramonlar ko'rinishi ham o'zgardi, hayotdagi ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy muammolarni hal etishga urina boshladi. Avvallari badiiy asarlarga, asosan, hukmdorlar, favqulodda sifatlarga ega kishilar qahramon qilib olingan bo'lsalar, XX asrga kelib, adabiy personajlar, ko'proq, oddiy kishilar orasidan qidiriladigan bo'ldi, chunki adabiyotdagi ijtimoiylashish doirasi kengaygan edi. Shuni unutmaslik kerakki, o'zgarishlar birdaniga emas, balki asta-sekinlik bilan amalga oshirilgan. Sababi bu davr adabiyoti ham klassik adabiyotimizning davomi, avlodi edi, mumtoz adabiyotning janr, unsurlaridan, tasvir uslublaridan, vaznlashishlardan shunchaki yuz o'girib bo'lmasdi. Biroq uning mavzu, g'oyalariga, tasvir uslublariga qo'shimcha yangiliklar kiritishni zamona talab qilib qoldi. Jamiyat hayoti adabiyotni bunga majbur qildi. Zotan, jamiyat va adabiyot hamma zamonlarda ham hamnafas bo'lgan.

<sup>20</sup> Sharafiddinov Ozod. Uch cho'qqining biri. – "O'z AS", 2001, 23-noyabr.

Hali ko'p qismi savodsiz, ilmdan bebahra, g'aflat uyqusida ko'lanka ostida qolgan millatga adabiyot orqali xitob qilindi. Chunki adabiyot katta ta'sir kuchiga egadir. Shu bois ham adabiyotda soddalikka, osonlikka qarab siljish qilish davr talabi bo'lib qoldi. Endi adabiyot ahliga insonlar tushunishiga qulay, quloqqa yoqimli, ongga tez ta'sir qiladigan adabiy o'zgarishlar kerak edi. Shu boisdan ham yozuvchi, shoirlar ba'zi yangiliklarga qo'l urishdi va ularni amaliyotda qo'llashni boshlashdi. Shu tariq adabiyot yangi bosqichga o'ta boshladi.

Endi yangi adabiyot bevosita yangi hayotni aks ettiradi. Bu adabiyot hayotdagi barcha muhim voqealarga faol aralashadi va ular haqida o'z fikrini obrazli qilib aytadi. Yangi o'zbek adabiyotining mavzular doirasi va g'oyaviy mazmuni yangi bo'lgani singari uning asosiy qahramonlari ham yangi bo'lishi tabiiy hol edi. Bu adabiyotning asosiy qahramonlari, ko'p hollarda, ishchilar, dehqonlar, ziyolilardir. Adabiyot endi faqat so'z san'ati sifatida yashay olmasdi, yani adabiyotdan faqatgina chiroyli tashbehlarni, tashxisu tanosublarni qidirish xatodek ko'rina boshladi, jadid shoirlari bu kabi she'riy san'atlar zamiriga ko'proq ijtimoiy ma'no yuklay boshlashdi. Nasr endi hukmdorlarni ulug'lashdan yiroqlashdi, lirika esa yor-oshiq-ag'yor o'rtasidagi munosabat bilan birga millat, erk, zulm kabi masalarni yoritib boshladi. Mumtoz lirikada ham ma'rifatga chorlovlar bore di, biroq ishq mavzusining ulushi ko'p edi. Yangi o'zbek adabiyotida esa mustaqillik, ma'rifat mavzusining o'rni kengaya boshladi. Chunki bu adabiyot yangi davrning xususiyatlarini o'zida aks ettirgan yangi adabiyot edi.

Shuning uchun ham XIX asrning 70-yillaridan boshlab adabiyotimizda necha asrlardan buyon amal qilib kelingan estetik an'analar buzildi. Badiiy ijod Alloh bilan sirlashish, ruhiyat injaliklarini aks ettirish, komil insonni ulug'lash, ma'shuqaning, oshiqning azoblari, illatli kimsaning kirdikorlarini tanqid qilishdangina iborat emasligi, unda yangi mavzularni ham kengroq yoritish imkoni mavjudligiga ko'proq e'tibor qaratila boshlandi. Hamisha ham yangilanishlarga osonlik bilan erishib bo'lmaydi. Adabiyotimizning taraqqiyoti ham silliq, bir tekkis davom etmagan. Bu yo'lda ham bir qancha to'siqlar bo'lgan. Yangi o'zbek adabiyoti paydo bo'lgandan boshlab to hozirgi bosqichga yetib kelguncha murakkab yo'lni bosib o'tdi.

Adabiyotimiz tarixi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish va ilm ahliga to'g'ri xulosalarni ko'rsatish borasida ko'plab olimlarimiz, adabiyotshunoslarimiz doimiy izlanishlarda, o'rganishlarda bo'lishgan. Bu mashaqqatli yo'lda fikrlar turtiligi ham uchraydi. Ba'zan bu fikrlar birligiga erishiladi va ba'zan esa yo'q. Shu jumladan, yangi o'zbek adabiyoti atamasini qo'llash, tushunish va uning chegaralarini ayonlashtirish borasida ham adabiyotshunosligimizda bir xillikka erishilgani yo'q.

XIX asrning 70-yillaridan e'tiboran paydo bo'lgan yangi o'zbek adabiyoti hozirgacha bo'lgan vaqt mobaynida o'z taraqqiyotida quyidagi bosqichlarni bosib o'tdi:

- a) ma'rifatchilik adabiyoti;
- b) jadid adabiyoti;
- d) sho'rolar adabiyoti;
- e) mustaqillik davri adabiyoti.

Bu bosqichlarning har birida yangi o'zbek adabiyoti o'ziga xos sifat va xususiyatlarga ega bo'lgan".<sup>21</sup>

Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Fitrat, Siddiqiy-Ajziy, Abdulqodir Shakuriy, Hoji Muin Shukrulla singari o'z davrining ilg'or ziyolilari va ijodkorlari mamlakat va xalq ahvoliga achinib, bunga chora izlay boshladilar. Ular xalq va mamlakat mashaqqatli hayot iskanjasida qiynalib kun o'tkazayotganining asosiy sababi ilmsizlikdir, degan xulosaga keladilar. Shu bois, deyarli savodsiz bo'lgan mehnatkash ommani ilmi, ma'rifatli qilish yo'llarini izlaydilar.

Jadidlar "O'lkani uyg'otish" va milliy uyg'onish davri g'oyalarini hayotga joriy etishda matbuot, maktab-maorif hamda adabiyot va san'at imkoniyatlaridan unumli foydalandilar. Turli xil to'siqlarga qaramay, "Taraqqiy", "Xurshid", "Vaqt", "Oyna", "Samarqand", "Sho'ro", "Shuhrat", "Turon", "Buxoroi sharif", "Sadoi Farg'ona", "Sadoi Turkiston" kabi gazetalarni tashkil etishdi va buning natijasida publitsistika rivojlandi. Ayniqsa, M. Behbudiy, Fitrat, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Hamza, Cho'lpon kabi jadidlarning publitsistik maqolalari ko'pchilikning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda, Abdulla

---

<sup>21</sup> Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. –T.: "O'qituvchi", 2004, B 7.

Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Said Ahmad Ajziy, Sidqiy Xondayliqiy, Vasliy Samarqandiy, To'lagan Xo'jamiyrov, Tavallo, Muhammad Sharif So'fizoda kabi shoir va yozuvchilar ijodida yaqqol ko'rinadi.

1910-yilga qadar o'zbek adabiyotida drama janrida yaratilgan asar yo'q edi. U XX asrning 10-yillarida vujudga kela boshladi. Bunda jadid yozuvchilarining xizmati katta bo'ldi. Adabiyotimizda 1910-yildan to 1917-yil fevral oyigacha bo'lgan vaqt ichida "Padarkush" (M. Behbudiy), "Zaharli hayot", "Ilm hidoyati"

(Hamza), "Baxtsiz kuyov" (A.Qodiriy), "Qozi ila mulla", "Ko'knori", "Juvonbozlik qurboni", "Eski maktab – yangi maktab", "Mazluma xotin" (Hoji Muin Shukrullo), "Mahramlar" (A.Samadov), "Advokatlik osonmi", "Pinak" (Abdulla Avloniy) kabi qirqtacha sahna asari yuzaga kelgan. Bu pyesalarning deyarli hammasida ma'rifat va ilmsevarlik masalalari aks ettirilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ma'rifatparvarlik adabiyotidan suv ichib XX asrning boshida keng tarqalib, faol kuchga aylangan jadid adabiyoti – xalq va mamlakat hayotida muhim o'rin tutgan. Jadid adabiyoti milliy adabiyotimizga bir qator yangilanishlar olib kirdi. Nasrda asosiy qahramon qilib oddiy xalq vakili yarusga olindi, o'zbek romanchiligiga asos solindi. Publitsistika, matbuot rivojlandi. Milliy adabiyotimiz tarixida dastlabki dramalar paydo bo'ldi. She'riyatda vazn, poetik obraz, ramziylik, badiiy ifodada yangilanishlar kuzatildi. XX asrda so'z san'ati sohasida erishilgan ana shunday yutuqlarni avaylab-asrash, bu davrda yaratilgan asarlarni tanqidiy o'rganib, keng targ'ib etish, ularni tom ma'noda xalq mulkiga aylantirish hozirgi kunning eng muhim vazifasidir. Shuni hech qachon unutmaslik kerakki, jadid adabiyoti mumtoz adabiyot bilan yangi zamonaviy o'zbek adabiyotini bir-biriga bog'lab turuvchi ko'prik vazifasini bajargan. Mumtoz adabiyotdan jadid adabiyotiga o'tilishi ham birdaniga bo'lgan emas. Mumtoz adabiyot bilan jadid adabiyotni bir-biriga bog'lashda esa ma'rifatparvarlik davri adabiyoti muhim o'rin tutadi. Jadidlar ma'rifatparvarlik davrida ijod qilgan adiblar ijodida nish ura boshlagan yangilanishlarni kerakli shakl-u shamoyilga keltirib berdilar va bu yo'nalishda yangi izlanishlarni amalga oshirdilar.

## **II BOB. JADID LIRIKASINING VAZN VA JANR XUSUSIYATLARI. JADID SHE'RIYATIDA BADIY OBRAZNING O'ZIGA XOSLIGI**

### **2.1. Jadid lirikasining vazn va janr xususiyatlari**

XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan va taraqqiy etgan falsafiy-estetik tafakkur yo'nalishini asosan jadidchilik harakati belgilagan edi. Jadidlarning falsafiy-estetik va pedagogik qarashlarining O'rta Osiyoda keng tarqalishi va katta ijtimoiy hodisaga aylanishida Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Cho'lpon, Abdulla Avloniy singari buyuk shaxslarning xizmati katta bo'ldi. Jumladan, jadid-ma'rifatchilari o'z dasturida millat va mamlakatning dunyoviy taraqqiyoti yo'lida to'siq bo'lib kelayotgan diniy fanatizm va qoloq rasm-rusumlarga qarshi chiqish, eski maktablarni yangi o'quv usullari bilan isloh qilish, xalq ommasining savodini chiqarish maqsadida matbuot masalalariga jiddiy e'tibor qaratib, yangi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivoji ustida qayg'urish; adabiyotni rivojlantirish; Yevropa madaniyatidan orqada qolib ketmaslik uchun zamonaviy milliy teatr tomoshalarini tashkil etish; xotin-qizlarning jamiyatdagi va oiladagi ahvolini o'zgartirish maqsadida turli ijtimoiy islohotlar yo'lini qidirish singari muammolarni o'rta tashladilar. Jadidlar katta ta'sir quvvatiga ega bo'lgan adabiyotni rivojlantirishga jiddiy kirishganlar. Ular asosiy e'tiborni adabiyotni xalqona tilga yaqin qilishga qaratishdi. Asarlarida xalq og'zaki ijodiga bo'lgan murojaatlarni kuchaytirishdi. Dabdabali so'zlardan foydalanishni kamaytirishdi.

Yangi o'zbek adabiyoti tarixining bu bosqichida she'riyat yetakchi o'rinni egallab keldi. XX asr o'zbek adabiyotining ilk sahifalari she'riy asarlar, qo'shiq va termalar bilan ochilgani tasodifiy emas. 20-yillarda Zavqiy, Avaz O'tar, Miskin, Xislat, Kamiy, Hamza Hakimzoda, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Avloniy, Anvar Otin,

Tavallo, Nozimaxonim, Xurshid, M.So'fizoda, A. Majidiy, Bayoniy kabi shoirlar she'riyatda faollik ko'rsatganlar. Ular davrning dolzarb mavzularida she'rlar yozib, erk va ozodlik, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, maktab-maorif, ilm borasidagi qarashlarini ilgari surganlar. Shu tariqa, mumtoz adabiyot an'analaridan foydalangan holda yangi o'zbek she'riyatini boshlab berganlar.

Cho'lpon adabiy turlar ichida lirikaning ta'sir kuchini yuqori baholaydi. Haynedan

qilgan tarjimasida ham shuni ta'kidlaydi:

*"Hamma esnab turdi, quloq solmadi*

*Qayg'umni gapirib bergan vaqtimda.*

*Meni alqamagan kishi qolmadi*

*Qayg'umni nazmga solgan vaqtimda"*<sup>22</sup>.

XX asr birinchi choragi xalqimiz uchun o'gir yillar bo'lishiga qaramay, adabiyotimiz uchun ulkan iste'dodlarni yetishtirib bera oldi. Ular orasida Abdulla Qodiriy tomonidan "Navoiydan keyin chiqqan o'zbek shoirlari ichida eng kuchli lirik shoir" deya ta'riflangan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ham bor edi. Abdulhamid Cho'lpon 20-30-yillarda o'ziga xos ijodi bilan yangi davr o'zbek she'riyatini boshlab berdi. Cho'lpon "Ulug' hindiy" maqolasida shunday yozadi: "O'zimning yo'qsizligimdan biroz so'zlab o'tayin: Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o'qiyman bir xil, bir xil, bir xil. Ko'ngil boshqa narsa yangilik qidirar. Botu, G'ayraty, Oltoy, Oybek, Julqunboylarni o'qiyman, quvontiradir, xolos!"<sup>23</sup>. Cho'lpon bu gaplarni o'zigacha bo'lgan adabiyotni kamsitish uchun emas, balki yanada yuksak pog'onalarga ko'tarish uchun aytgan, albatta.

Qisqa muddatda yangi adabiyot shakllandi. Adabiyotga "Millat" va "Vatan" tushunchalari yanada mustahkam o'rin egalladi. Avloniy, Hamza, Cho'lpon va Fitratlar ma'naviyat maydoniga chiqdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar, Komil Xorazmiy, Ibrat singari shoirlar yaratgan she'riyat an'anaviy she'riyatdan, masalan, Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy lirikasidan birmuncha farq qilardi. XIX asr adog'i va XX asr avvalidagi she'riyat risoladagi aruz, ya'ni devon she'riyati bilan o'zgargan zamon kayfiyatini ifodalagan barmoq vaznidagi she'riyat o'rtasida bir ko'prik vazifasini o'tagan. Shuningdek, bu shoirlar asrlar bo'yi davom etib kelayotgan mumtoz nazmimiz an'analari davomi sifatida aruzda barakali qalam tebratgan eng so'nggi shoirlar sirasidan edi. Chunki ularning she'riyati shaklan har qancha aruziy

---

<sup>22</sup> Cho'lpon. She'rlar. –T.: Akademnashr, 2020. B 214.

<sup>23</sup> Cho'lpon. Asarlar. 4 jildlik. 4-jild. –T.: Akademnashr, 2016. B 31.

ko‘rinmasin, mazmunan sekin-asta davr ruhini, unda yuz berayotgan olamshumul o‘zgarishlar kayfiyatini aks ettira boshlagandi.

Shunga ko‘ra, bizda ham “she’r tushunchasi asosidan o‘zgarishga majbur” ekanligi ayon bo‘lib qolgan, she’riyat shunga ehtiyoj sezayotgan edi.

Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning “Vistavka xususida” she’ri ham aruz vaznida, mumtoz she’riyatimizdagi mahzun she’rlar uchun eng maqbul masnaviy shaklida yaratilgan. Ma’lumki, u 1890-yilda yozilgan, xuddi shu yili shoirning yana “Gimnaziya”, “Suvorov haqida”, “Akt majlisi xususida”, “Nag‘ma bazmi xususida” kabi she’rlari ham yaratilgan.

Ushbu she’rlarning bari ma’rifatchilik ruhida bo‘lib, shoir o‘quvchisini o‘zga madaniyatning maqbul tomonlari bilan tanishtirishni niyat qilgan. Agar razm solinsa, ijodiy niyat bilan an’anaviy shakl bir-biriga unchalik muvofiq kelmayotganini sezish mumkin. “Vistavka xususida” she’rining boshlanishidagi mana bu bandlarga qarang:

*Ajab bog‘iki, ru, afzo uzavosi,  
Eram rashki nasimi jon fizosi.  
Otsib o‘tar soridin obi ravonlar,  
Edi andog‘kish ul jism ichra jonlar.  
Muattar bog‘ sa uni ochilib gul.  
Tomoshobinlar erdi anda bulbul.*

Shoir ijodida mazmundagi o‘zgarishlar esa, avvalgi boblarda aytilganidek, hayotdagi o‘zgarishlar bilan, davrning ijtimoiy kayfiyati bilan bogliqdir.

Yangi mazmun poetik shakldan shunga mos o‘zgarishlarni taqozo etadi. Va bu bir qonuniyat.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari o‘zbek she’riyati shakl bobidagi izlanishlar davridir. To‘g‘ri, bunday izlanishlar badiiy ijod tabiati bilan bog‘liq holda adabiyotda hamisha bor. Biroq XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi izlanishlar islohiy xarakterga egaligi bilan farqlanadiki, ularning natijasi o‘larok yangi o‘zbek she’riyati vujudga kelgandir.

Shakl bobidagi izlanishlar eng avval she’rning ritmik-intonatsion sathida ko‘zga tashlanadi. Ushbu izlanishlar avvaliga aruz doirasida amalga oshdi desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Bu o‘rinda she’r

o‘lchovlari va she‘r shakllaridan jonli tilga, xalk ijodidagi ohanglarga eng yaqinlarining keng istifoda etilishini nazarda tutmoqdamiz.

Masalan, Muqimiy lirikasi “Ko‘nglim sandadur” murabbasini olaylik:

*Emdi sendek, jono, jonon qaydadur,  
Ko‘rib gul yuzingni bog‘da bandadur,  
Saqlay ishqing toki jonim tandadur  
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.*

E’tibor qilinsa, aruzda yozilganiga karamay, keltirilgan murabba bandi 11 bog‘inli 6 + 5 tarzida turoqlangan barmoq o‘lchoviga ham to‘lik mos kelishi ko‘rinadi. Xuddi shu narsa, menimcha, murabbaning bir necha joyida choziq va qisqa hijolarning tartibli takrori buzilgani sezilmay qolishiga zamin bo‘ladi. Albatta, aruzda yozilgan she‘rda vazn talabi bilan cho‘ziqhijoni qisqa va aksincha oqishni talab etuvchi holler bo‘ladi. Lekin bu murabba‘ning o‘qilishida, menimcha, o‘sha qoidalaridan ko‘ra ko‘proq barmoqdagi xalq qo‘shiqlari ritmik konteksti asos bo‘lib xizmat qiladi. Xuddi shu gapni keyinroq yaratilgan Hamza murabbalari haqida ham aytish mumkin. “Devoni Nihoniy”ga kiritilgan beshta murabba‘ning uchtasi barmoq o‘lchovlariga ham birdek muvofiq keladi. Masalan, murabba‘lardan biri 10 bo‘g‘inli 5 + 5 tarzida turoqlangan quyidagi band bilan boshlangan va she‘r oxiriga qadar shu o‘lchov saqlangan;

*Xayrona bo‘ldum /ul qiz baloga, 5 + 5  
Sarvu sanubar, /qoshi qaroga, 5 + 5  
Ko‘rsotib o‘zni /mandek gadoga, 5 + 5  
Muncha suxanlar /soldi aroga. 5 + 5*

Aynan shu o‘lchov “Nogah yo‘luqdim bir qiz bologa” misrasi bilan boshlangan murabbada, 6+5 tarzida turoqlangan 11 bo‘g‘inli o‘lchov esa “Muhabbat bog‘idin totlig‘ xabardur” misrasi bilan boshlangan murabbada boshdan-oyoq saqlanadi. “Nazarlarda qay kun javlon aylading” deb boshlanuvchi murabbaning dastlabki ikki bandi 11 bo‘g‘inli (6+5) o‘lchovga mos. Lekin bu o‘lchov she‘r oxiriga qadar saqlanmaydi. Uchinchi bandning “Jon bag‘ishlar tutilarga guftoring”, oltinchi bandning “Goh arazlab, gah o‘ynashub, uyolub, Akolaring og‘ushiga suyolub” va nihoyat, sakkizinchi bandning “Ayb etmagil Nihoniyni, jonona” misrasi barmoq o‘lchoviga tushmaydi. Bundan ko‘rinyaptiki, murabbani barmoqda yozilgan

deyishga monelik kiladigan birgina sabab bor. U ham bo'lsa, ayrim misralarda aruzdagi kabi so'zning rukn bilan bo'linishi. Yaxshi ma'lumki, o'zbek aruzida misralarda hijolar sonining tengligi, ya'ni barmoqqa xos bosh xususiyat, asosan, saqlanadi. Shu xususiyat tufayli xam she'r tili jonli suzlashuv tiliga yaqinlashgani sari aruzning barmoq tomon siljishi kuzatiladi. Til jihatdan jonli so'zlashuv tiliga yaqin bo'lgan Muqimiy "Sayohatnoma"lari buning yorqin dalilidir. "Sayohatnoma"larning rajazi musammani solim vaznida yozilgani qayd etiladi. Shunga qaramay, "Sayohatnoma"ning aksariyat bandlari barmoqning 4+4 yoki 5+3 tartibida turoqlangan 8 bo'g'inli o'lchoviga muvofiq keladi.

Aruz doirasidagi izlanishlarning biz yuqorida ko'rib o'tgan yo'nalishi mumtoz she'r o'lchovlari va she'r shakllaridan jonli tilga eng yaqinlarini saylab ishlatish bilan cheklangan bo'lsa, ikkinchi y o'nalishi endi o'sha o'lchov va shakllarga muayyan o'zgartirishlar kiritishda, yana ham aniqrog'i, mumtoz poetikaning qat'iy belgilangan qoidalaridan chekinishda namoyon bo'ladi. Jadid she'riyati poetikasini maxsus tadqiq etgan N.Afoqova undagi aruz vazni, qofiya qoidalariga zid o'rinlarni izchil ko'rsatib beradi va ularni "aruzdan boshqa vaznga o'tish oldi jarayonini aks ettiruvchi o'zgarishlar" deb aytadi. Albatta, vazn va qofiyadagi o'zgarishlarning bosh omili mazmundagi o'zgarishlardir. Professor B. Qosimov "aruz murakkab, bo'ronli davrning goh shiddatkor, goh bo'g'iq nafasini keng ommaga etkazishda uncha qulay emas edi" deb yozadi. Demak, noqulaylikning sababi, mazmunda davr ruhi aks etishi bilan bog'liq ekan. Aslida, davr ruhi eng avval tilda aks etadi. Shu jihatdan qarasak, jadid she'riyatida tilning xalqchillashuvi barmoq tomon siljishning eng muhim sababi sifatida ko'rsatilishi mumkin. Zero, yuqorida Furqat, Muqimiy asarlarida ko'rilgan an'anaviy she'riyat tilidan chekinib jonli tilga yaqinlashish tendensiyasi jadidchilik davriga kelib kuchaydi, jadid she'riyati uchun anglangan ijodiy prinsip bo'lib qoldi. Negaki, "millatni uyg'otish" maqsadi imkon qadar keng ommaga murojaat etishni, bu esa tilning xalqchillashuvini taqozo etadi.

Mazkur tendensiyaning Hamza va Avloniylarning ijodiy tadrijida yaqqol kuzatish mumkin. Jumladan, "Devon"ida mumtoz poetik qoidalarga asosan amal qilgan Hamza "milliy she'rlar"idan boshlab

ulardan chekina boshlaydi va bu chekinish yildan yilga, to‘plamdan to‘plamga kuchayib boradi. Xuddi shunga o‘xshash holni Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” majmuasining 1909-yilda chop qilingan birinchi juz’i bilan keyingi juz’larini qiyoslaganda ham kuzatish mumkin. Xolbuki, masalan, devon Hamzaning mumtoz she’r texnikasini mukammal egallaganini ko‘rsatadi. Ya’ni shoir an’anaviy yo‘lda ham yaxshigina she’rlar yozaverishi mumkin edi. Biroq, bir tomondan, davr ruhini ifodalashdek ijodiy-ruhiy ehtiyoj, ikkinchi tomondan, shoir kuzlagan ijtimoiy maqsad uni an’nalardan chekinishga olib keladi.

Xamza “Qizil gul”ga yozgan so‘zboshida to‘plamga kirgan “she’rlarda ba’zi uzun-qisqaliklarni hamda adabiyotdan yiroqligini ko‘rub, adabiyot ilmidan butun deyarli xabarsiz kishi ekanmi deguvchi zotlarga qarshi bu adabiyotdan xabarsizlik emas, qora elimizni tushunuvina o‘ng‘ay bo‘lsin uchun” deya izoh berib o‘tishni lozim topadi.

Aruz asr boshidagi she’riyatda ham u yagona va asosiy vazn edi. Lekin Navoiygacha bo‘lgan va undan keyin yaratilgan xalq og‘zaki ijodi – barmoq vaznida. Mumtoz adabiyotimizda barmoqda yozilgan she’r deyarli uchramaydi. Lekin aruz murakkab, bo‘ronli davming goh shiddatkor, goh bo‘g‘iq nafasini keng ommaga yetkazishda uncha qulay emas edi. Shuning uchun ham Avloniy muhim ijtimoiy ma- salalardan bahs ochuvchi ko‘pgina she’rlarini barmoqda yozdi. Barmoqni xalq og‘zaki ijodidan yozma adabiyotga olib o‘tdi.

Avloniyning barmoqdagi ilk she’rlari xalq qo‘shiqlariga moslab yozildi.

Masalan, “To‘y haqida” she’ri “Reza” kuyida:

*Otma mani toshlar bilan yor-yor, yor-o‘v,*

*Uchub ketay qushlar bilan yor-yor, yor-o‘v.*

xalq ashulasi yo‘lida yozilgan.

Jahon adabiyoti tarixiga umumiy bir nazar solinsa, yangi davr milliy adabiyotlariga xos xususiyatlardan biri normativ poetikadan, u belgilagan poetik qonunlardan qutulishga intilish bo‘lganini ko‘rish mumkin.

XIX asr oxirlari turk she’riyatida kuzatilgan ritmik-intonatsion o‘zgarishlardan birini mutaxassislar “erkin aruz” deb atashgan .

Uning mohiyati shuki, she'rda bir xil ruknlar takrorlangani holda ularning misralardagi soni teng emas. Adabiyotshunos N.Afoqova jadid she'riyatidagi "vaznlar guldastasi" deb atagan hodisani ham mohiyatan "erkin aruz" deb biladi. Xuddi shunday hodisa rus she'riyatida ham kuzatilgan. Rus sillabo tonik she'riyatida avvaliga she'r misralarida yamb stopalari erkin tarzda takrorlangan (bunday she'rlar "yamblar" deb atalgan) bo'lsa, keyincha yambdan boshka stopalarning erkin takrorlanishi ham odatga aylangan va shu tariqa erkin she'r vujudga kelgan. O'zbek she'riyatida erkin she'r barmoq asosida shakllangan degan fikr ustuvor. Biroq bu fikr bahsli va aniqlashtirishga muhtojdir. Zotan, erkin she'r tomon siljish she'riyatimizda XX asr boshlarida va aruz doirasida boshlangan. Bunga amin bo'lish uchun Hamza ijodiga murojaat etamiz. Hamzaning "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi" degan umumiy nom ostidagi she'riy to'plamlari davr she'riyati ritmik-intonatsion sathidagi o'zgarishlarni keng ko'lamda ko'rsata oladigan manbadir. Ushbu to'plamlarga kirgan she'rlar ritmik rang-barangligi, mumtoz she'r shakllarini yangilash yo'lidagi ijodiy izlanishlarni namoyish etishi bilan ahamiyatli. Bilamizki, jadid ijodkorlarning turk adabiyoti bilan aloqasi keng e'tirof etiladi. Faqat bu o'rinda umuman turk adabiyoti emas, balki XIX asr oxiri - turk she'riyati yangilanish yo'liga kirgan davr va uning I.Safo, T.Fikrat, R.Tavfiqbek, A.Xamid, Y.Kamol kabi ilgor namoyandalari nazarda tutiladi.

Jadid ijodkorlari lirikasini kuzatib ulardagi ham aruzga xosliklarni, ham barmoqqa xos xususiyatlarni uchratishimiz mumkin. Suning uchun ham aruziy ohanglar ta'siri har qancha sezilib tursa ham, she'r barmoqqa asoslangandir, yoki she'rda barmoqqa xos xususiyatlar ko'rinib tursa ham she'r aruzga asoslangan deb xulosa chiqarishga shoshilmagan ma'qul. Bundan ko'rinyaptiki, aruzdan barmoqqa o'tish jarayonida aruziy ohanglar asos bo'lib xizmat qilgan. Bu esa barmoqni estetik qabul qilish uchun tayyorgarlik bosqichi sifatida g'oyat muhim edi. Shu jihatdan qaralsa, N.Afoqova "o'zbek adabiyotida she'riy shakllarning tom ma'noda yangilanish jarayoni aruzda va qofiya ichidagi o'zgarishlardan tashkari xalq

qo'shiqlari yo'lidagi she'rlarning paydo bolishidan boshlandi"<sup>24</sup> deganida to'la haq edi.

Jadid shoirlarning izlanishlari she'riyatda barmoq vaznining qaror topishiga, unda qo'shma vaznlarning keng ishlatilishiga va erkin she'r bobidagi izlanishlariga zamin bo'lganini ko'rsatadi. Shunga kura, vaqtida zamona talabi bilan she'riyatimizdagi bu jarayonlar xronologik jihatdan biroz ortga surilib, uning sovet davri bilan bog'langani tug'ri emas.

Adabiyotshunosligimizda barmoqda she'r bitishni kim boshlagani xususida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim adabiyotshunoslar bunda Hamzani, boshka birlari Avloniyni, ba'zilar Fitratni, birlari Cho'lponni ko'rsatishadi. Lekin, yuqorida ko'rganimizdek, aruzdan barmoqqa o'tish ancha ilgari - XIX asr oxirlaridan boshlangan jarayon bo'lib, bunda Muqimiydan boshlab yuqorida sanalgan shoirlarning hammasining ham o'ziga yarasha katta xizmati bordir. Biroq e'tibor bering, ular ham birdaniga barmoq vazni ummonida qulaylik bilan suzib ketishmadi, balki izlanishdi. Hammalari aruzda ham yozishdi, aruz imkonlarini kengaytirishga intilishdi, biroq baribir barmoq yangi she'riyatning bosh she'r tizimi maqomida qaror topib boraverdi. Jadid ijodkorlarning barmoqdagi ilk mashqlari musiqiylik, xushohanglik jihatidan aruzga tenglasholmasligi shubhasiz. Lekin boshqa tomoni, zikr etilgan shoirlarning aruzda bemalol ijod qila olishlari ham shubha uyg'otmaydi. Masalan, "Qalandar ishqi" nomli badiiylik mezonlariga har jihatdan yuksak darajada javob bera oladigan, pishiq-butun g'azal yoza bilgan Cho'lpon nega ijodiy quvvatini yana shunday aruziy mo'jizalar yaratishga sarf etmadi?

Javob yana o'sha yerda, davrning ijtimoiy-psixologik kayfiyatida. Asr boshiga kelib u o'zgargan edi, davrning bu ruhini sokin aruzdan ko'ra shiddatkor barmoqda ifodalash har tomonlama maqsadga muvofiq kelardi.

Masalan, Cho'lponning "Qo'zg'alish" she'rini olaylik;

*Ey! Sen - meni haqir ko'rgan, tuban degan afandi!*

*Ey! Ustimda bir umrga xo'ja bo'lmoq istagan!*

*Ey! Bo'ynimga kishan solib halokatga sudragan,*

*Ko'zlaringni zaharlatib o'ynatmagil, bas endi!*

---

<sup>24</sup>Afoqova N. Jadid she'riyati poetikasi,- T.: Fan, 2005.- B.38


*Kishanlaring zang bosgandir, sergak bo'lkim, uzilur.  
Tomirimda qo'zg'alishning vaxshiy qoni gupirdi.  
Eski fikr, an'analar endi butkul uzildi,  
Yo bitarman, yoki sening saltanating buzilur!  
Ey! Sen – meni qul o'rnida ishlatguvchi afandi!  
Titra, qo'rqkim, bog'liq quling bosh ko'targan kuch endi!..*

Vatani yov tomonidan bosib olingan, insonlik izzat-nafsi haqorat etilgan, binobarin, birdan-bir maqsadi ozodlik bulib qolgan jo'mard yurt o'g'lonining olovli xitobidir – bu! Uni aruzning tinib qolgan ohangiga solish bir qadar sun'iylikni yuzaga keltirishi barobarida she'r bag'riga jo etilgan haroratni, shiddatni, nafratni... ma'lum ma'noda boshashtirib qo'yishi mumkin edi. Shu bilan birga aruzni butunlay iste'moldan chiqarib bo'lmasligini Cho'lponning bir qancha she'rlaridan 60-yillarga kelganda Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Hamid Olimjon, Abdulla Oripov ijodlaridagi g'azallardan ham tushunsa bo'ladi.

She'riyatimizdagi XIX asr oxirlaridan boshlangan shakl bobidagi izlanishlarni

qiyomiga yetkazish, jumladan, barmoqda nafaqat mazmuni, balki xushohangligi bilan ham chinakam poeziya namunalari degulik she'rlar bitishda birinchilik Cho'lponga nasib etdi. Xuddi adabiyotimizda "Qutadg'u bilig"dan boshlangan izlanishlarni hazrat Alisher Navoiy maromiga yetkazganlari kabi.

Jadid adabiyoti an'anaviy janrlarga yana qo'shimchalar kiritdi. Mavjudlarini esa takomillashtirdi. Jadid she'riyati janriy jihatdan ham rang-barang hisoblanadi. Avloniy, Hamza, Cho'lpon har uchchalasining ijodida g'azalning go'zal namunalari uchraydi.



Nodira Afoqova jadid lirikasining janr xususiyatlarini maxsus o'rgangan. Xususan, musammat turlariga alohida to'xtalib o'tgan. Musammatlar uchlik banddan boshlanib o'nlik band shakligacha


bo‘lib, mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan. Musammatlar mavzuning keng talqini, qamroviga asoslanadi. Avloniy, Hamza, Cho‘lpon murabba’, muxammas, musaddas, musabba, musammanlar yaratishgan.

Avloniy ijodida ijtimoiy mazmundagi muxammas, musaddas, musammanlar katta o‘rin tutadi. Murabbalar ham mavjud, biroq muxammas, musaddas, musammanlarga nisbatan sezilarli kam.

Hamza ijodida esa murabba, muxammas, musaddas, musammanlar mavjud. “Dardiga darmon istamas” she‘rini shartli tarzda musallas deyish mumkin, chunki she‘rning so‘nggi 9-bandidan tashqari avvalgi 8 ta band uchlik bandlardir. Hamzaning “Nihon” taxallusi bilan yozgan she‘rlari 214 ta. Devoniga esa 197 tasi kiritilgan. Ular g‘azal va musammatlardan iborat. Devonda murabba’ – 6, muxammas –19, musaddas – 5 tani tashkil etadi. Biroq to‘la asarlar to‘plamida biz murabba’ va musammanlarni ham uchratamiz.


Cho‘lpon ijodida esa, asosan, to‘rtliklardan iborat bo‘lib, barmoq vaznida yozilgan. Cho‘lpon ijodida yana beshlik, oltiliklarni ham uchratishimiz mumkin.

Jadid shoirlari sevib ijod qilgan musammat o‘zining ko‘p shaklliligi bilan ham e‘tiborlidir. Yuqorida Avloniy, Hamza va Cho‘lpon ijodidagi musammatlar xususida mulohaza yuritdik, quyida esa jadid ijodkorlari ijodida musammat shakllarining hissasini ko‘rsatib o‘tmoqchimiz:



Avloniy, Hamza, Cho‘lpon har uchchalasining ijodida munozara uchraydi. Avloniy munozaralarida asosan an‘anaviy gul-bulbul obrazlari orqali ijtimoiy hayot yoritilgan. Hamza ijodidagi munozaralar esa xalqonalikka juda yaqin ularda yigitlar-qizlar o‘rtasidagi munozaralar yetakchi o‘rin egallagan. Cho‘lpon

munozaralari ham ijtimoiylikka asoslangan va ularda o'zbek ayollari, omma orasidagi turli tabaqa vakillari markazda turadi.



Xullas, she'riyatdagi vaznlar almashinuvi Hamza, Avloniy, Fitrat, Cho'lpon kabi shoirlarning orzusi bilangina birdaniga ro'yobga chiqib qolgan bo'lmay, jamiyatda yetilib kelgan yangi ijtimoiy-psixologik kayfiyat orkasidan sekin-asta voyaga etgan adabiy hodisadir. Uning ijtimoiy mohiyati ham aynan shunday. 20-yillardagi shiddatli o'zgarishlar, keskin g'oyaviy kurashlar ruhi she'riyatdagi vazniy o'zgarishlar sur'atini ham oshirdi. Shu yillardan boshlab o'zbek she'riyatida barmoq vazni ustuvor maqomga ega bo'ldi. Xususan, 20-yillarda she'riyatimizga kirib kelgan avlod G'.G'ulom, Oybek, X.Olimjonlar avlodi, asosan, barmoqda qalam tebratdi. 20-30-yillar ijodida erkin she'r ham keng o'rin tutdi. Chunki shoir o'zini kurashda his qildi, she'r endi ko'ngil izhori emas, minbardan yangrayotgan da'vat sifatida tushunila boshlandi. Biroq XX asr o'zbek she'riyatida, ayniqsa, 20-30-yillarda erkin she'r va sarbast qanchalik keng o'rin tutmasin, baribir, yangi o'zbek she'riyatining ritmik asosi barmoq bo'lib qoldi.

## **2.2. Jadid she'riyatida badiiy obraz masalasi**

Jadidchilik o'z davrining ilg'or ijtimoiy-ma'rifiy harakati edi. Bu harakat qatnashchilari vatanparvar, millatsevar, ma'rifatparvar, taraqqiyparvar ziyolilardan iborat edi. Jadidlar Turkiston xalqlarining bilimsizlik va jaholat iskanjasida qashshoq hayot kechirayotganlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'rifiy sabablarini aniqlashga intilganlar. Va mamlakatdagi qoloqlik va qashshoqlikning asosiy sababi ilmsizlik va erksizlikdir degan xulosaga kelganlar. Shunga ko'ra, mehnatkash ommani ma'rifat egallashga, ilm olishga, hurriyatga chaqirganlar.

Jadidlar eng qaltis paytlarda ham jabrdiyda xalqni himoya qilishdan qaytmadilar. Mustaqillik uchun turli shakllarda izchil kurash olib bordilar. “Birinchii navbatda qora xalqni oqartirmoq va ko‘zin ochmoq chorasiga kirishdilar” (A. Avloniy).

O‘ta iqtidorli bolgan Abdulla Avloniy 15 yoshida she‘rlar yoza boshladi. U 1894-yildan boshlab she‘rlar yozishga kirishgan bo‘lsa-da, biroq yoshlik davrida yozgan she‘rlari bizgacha saqlanmagan. Dastlabki she‘rlarida va “Hijron” degan maqolasida xalqni yangi usul maktablarida o‘qib-o‘rganishga targ‘ib qildi. Abdulla Avloniy 1907-yilda “Shuhrat”, “Osiyo” nomli yangi gazetalar chiqara boshladi, lekin chor amaldorlari tez orada gazetalarini yoptirib qo‘yadi. Abdulla Avloniy keyinroq “Sadoyi Turkiston” (1914-1915), “Turon” (1917), “Ishtirokiyun” (1918) gazetalarida, “Kasabachilik harakati” (1921) jurnalida muharrir bo‘lib ishlaydi.

Abdulla Avloniy “Adabiyot yohud milliy she‘rlar majmuani tuzish zaruratini yuzaga keltirgan uchta sababni k o‘rsatadi; 1) mavjud kitoblarda mavzu murakkab; 2) ko‘plari ona tilida emas; 3) ulardagi obrazli ifoda tushunishda kiyinchilik tugdiradi. Garchi Avloniy bu gaplarni bolalar uchun tuzgan majmuaga nisbatan aytayotgan bo‘lsa-da, ular o‘zida umuman jadid adabiyotiga xos ijodiy tamoyillarni aks ettiradi. Jadid ijodkorlar adabiyotni mavzu e‘tibori bilan hayotga, tilini jonli tilga yaqinlashtirgani bungacha ham aytili. Va bu ikkisi bilan bogliq holda she‘riyatning ifoda yusini ham soddalashdi.

Mumtoz she‘riyatdan farq qilarok, endi bu she‘riyat asosan elitaga (ya‘ni, madrasa ko‘rgan ziyoli qatlamga) emas, balki keng ommaga (ya‘ni, avomga xam)

qaratildi. Keng omma esa mumtoz she‘riyatdagi murakkab obrazlilikni, ramz-u majozlar qatidagi mazmunni idrok etishga, tan olish kerak, hali tayyor emas edi. Albatta, mazkur hol ijodkorlar oldiga murakkab muammoni qo‘ygani shubhasiz.

Jadid she‘riyatida eng ko‘p ommalashgan ifoda yo‘sini ommaga bevosita murojaatdir. Murojaat ob‘ekti aksar xollarda “Vatan”, “Turon”, “Turkiston” kabi

metonimik tarzda, shuningdek, “Turkiston eli”, “Turk eli”, “millat”, “o‘zbek eli”, “kardoshlar”, “dindoshlar”, “musulmonlar”, “millatdoshlar” kabi so‘zlar bilan aniq ifoda etiladi. Masalan,

“Yotursan tobakay g‘aflat kuchoginda, uyon millat” yoki “Ey jahlu xobi g‘amga talabgor ulan Vatan!” (Avloniy); “Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yigla, Turkiston”, “Ey musulmonlar, qachon biz darda darmon istariz” yoki “Hasrat kilay kardoshlar, ko‘zni oching dindoshlar” (Hamza). Jadid she‘riyati bilan tanishganda, undagi murojaat etuvchi sub‘ekt, boshqacha aytsak, lirik qahramonning qator umumiy xususiyatlari ko‘zga tashlanadi. Albatta, bu bejiz emas. Zero, voizlik mazmuni va ruhi bilan yo‘grilgan she‘rlarda “lirik men”dan ko‘ra “lirik biz”ning o‘y-fikr, kechinmalari salmoqliroq urin tutadi. Ya‘ni umumiylikning asosi bu she‘rlarda shoirning shaxsan o‘z tilidan emas, balki guyo jadidchilik xarakati nomidan so‘zlashidir.

Hamza aytmokchi “qora el”ning tushunishi oson bo‘lishi uchun jadid shoirlari ongli ravishda obrazlilikni keyingi o‘ringa kuyadilar - narsalar o‘z nomi bilan ataladi. Negaki, sirasini aytsak, jadid shoirlarning aksariyat she‘rlari mohiyatan keng ommaga qaratilgan nutq - va‘zdir. Shu sababli ham jadid she‘riyatida obrazli ifodadan ko‘ra ritorik chaqiriqlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadid lirikasida davr, zamona talabi bilan mavzu o‘zgardi, vazn soddalashgan, xalq uchun tushunarli barmoqqa o‘tdi. Xalqqa ritotik murojaatlar kuchaydi.

An‘anaviy aruzda qo‘llanib kelingan poetic obrazlar ham endi yangicha vazifada yangi ma‘no bera boshladi. Endi jadid lirikasida gul-bulbul-tikan avvalgi oshiq-ma‘shuq-ag‘yor degan motivlarni emas, balki, erk-mustamlaka-mustamlachi, hurriyat-jabrdiriyda-zulmkor degan mazmunni ifoda eta boshladi. Bularning barchasi davr talabi edi. Yuqoridagi boblarda keltirib o‘tilganidek, omma oson tushunsin deb, ta‘sir kuchliroq bo‘lsin deb aruzdan barmoqqa o‘tish boshlandi. Biroq har qanday ma‘moni ochiq-oydin aytilaverishiga chor hukumati aslo yo‘l qo‘ymagan. Shu bois badiiy lirika badiiy obrazlarga murojaat qildi.

Klassik adabiyotimizda ming yillardan beri tshlanib kelgan gul, bulbul, yor, ag‘yor, may, charx (dunyo) kabi obrazlar bu davr adabiyotida, jumladan, Avloniy ijodida boshqacha ohang, boshqacha mazmun kasb etdi. Masalan, u “gul” ni shunday ta‘riflaydi:

*Xor alindan bag'ri qon o'lmish, bo'yanmish qona gul,  
 G'uncha bag'rin chok etub, afg'on qilur afsona gut...  
 Yuzdagi xoli cmas, zolim tikonning yorasi,  
 Kecha-kunduz zahmi g'am birlan butun o'rtona gul...  
 Subhidarnda yuziarindan mavj urati shabnam emas,  
 Xor zulmindan to'kar ko'z yoshini durdona gul...  
 Gar sabo tebratsa guini, xush isi nevchun chiqar,  
 Bag'riga botgan tikanlardan kelur afg'ona gul  
 Naylasun bechora gul botmish vujudiga tikan,  
 Zahmiga marham uchun yafrog'iga chulg'ona gul.  
 Dildagi qayg'ularin ko'rganmusiz, chun za'faron,  
 Chok ctub g'urbat yaqosin ko'rsatur insona gul...  
 ("Ta'rifi gul" she'ridan)*

Bu yerdagi gul an'anaviy ma'shuqa emas. Subhidarnda yuziga qo'ngan shabnam (durdona ko'z yoshi) qat-qat alvon yaproqlar (bag'ri qon bo'lishi) oshiq iztiroblarini ifoda etmaydi. Bu yerda gap muhabbat haqida emas: gul g'urbat va mashaqqatdan za'faron bo'lgan yuragini chok etib insonga ko'rsatadi... Beixtiyor xor (tikan) mustamlakachi istibdodini, bag'ri qon gul esa jafokash Turkistonni eslatadi. Shoir she'rlari orasida "Sadoyi bulbul", "Hijroni bulbul", "Fig'oni bulbul" kabi she'rlar bor. Bular ham aksariyat hollarda gul (ma'shuqa) ishqida yonib o'rtanayotgan oshiq emas. U ko'p o'rinlarda mazlum Turkistonga qarata: "Uyg'on!" deb bong urayotgan lirik qahramon – shoir obrazini ifodalaydi.

*Qo'nub gul shoxiga bulbul der: "Ey insonlar, insonlar!  
 Qilursiz tobakay g'ofil yotib afg'onlar, insonlar".  
 ("Sadoyi bulbul" she'ridan)*

*Jahon bog'ini gulzorinda faryod etdi bir bulbul,  
 Ohurdi nag'mazorinda gulin yod etdi bir bulbul.  
 Ko'rub gul yafrog'ini hajridan dod etdi bir bulbul,  
 Visoli yor uchun yuz navha inshod etdi bir bulbul...  
 ("Fig'oni bulbul" she'ridan)*

"Hijroni bulbul" she'ri bu o'rinda juda diqqatga sazovor. She'rning mazmuni quyidagicha: bulbul – shoir guli – millati hajrida

kecha-yu kunduz fig'on chekadi. Butun umrini unga bag'ishlaydi. Lekin bulbul gulzorda bog'bon qo'lga tushib, qafasga tashlanadi. U endi qafasda "Gul!" deb faryod qiladi. Zolim "qafas" unga ozor beradi. Taajjub! Uning "faryod"ini hech kim tinglamaydi, hech kim unga "rahm" qilmaydi. "Gul" hajrida uning yo'ldoshi faqatgina "g'am" bo'lib qoladi... Keyingi parchada gul obrazi ham bor. Bulbul gulini yod etyapti. U uchun iztirob chekyapti. Qafas – zamon. Millatning shoirga "kar"ligi, hech kimning e'tibor qilmasligi milliyat tuyg'usining so'nganligidir.

*Kecha-kunduz qafasda, oh gul, deb aylayur faryod,  
Omon bermas ango zolim qafas, ozor o'lur bulbul.  
Taajjub, rahm qilmas, yetmayur faryodina hech kim,  
Bu hijronlig'da doim g'am bilan g'amxor o'lur bulbul.*

Shu tariqa Avloniy gul va bulbul obrazlariga faqat yangi ma'no yuklabgina qolmay, bu obrazlarni davom ettiradi. Darvoqe, Avloniy she'rlarida yor obrazi – ilm, ma'rifat, taraqqiyot, xalq tushunchalarini, ag'yor – nodonlik, jaholat, zulm, istibdod ahli ma'nolarini ifodalaydi va hokazo. Bu obrazlarning aksariyati o'zlarining ilgarigi ma'nolaridan butunlay uzoqlashgan va zamon talabiga mos yangi mazmun kasb etgan.

Avloniyning obrazli ifodasiga ko'ra, ilm bamisoli bodomning ichidagi mag'iz. Uni qo'lga kiritish uchun mehnat qilish, ya'ni chaqib uni po'chog'idan ajratib olish kerak.

U ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo'lida qo'llanmasa, u o'likdir. A.Avloniy o'z ilmini amalda qo'llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar, deb ataydi.

Abdulla Avloniy o'tmish mutafakkirlari kabi yoshlarni foydali kasb-hunar egallashga chaqiradi. Adib boylik ketidan quvuvchilarni, ularning odamgarchilikka to'g'ri kelmaydigan ishlar bilan shug'ullanayotganini ko'rib, ulardan nafratlanadi. Avloniyning xalqni ma'rifatga tashviq qilganidan dalolat beruvchi misralaridan biri quyidagidir:

*Idrok ila aqling-la ayur yaxshi-yomonni,  
Behudaga sarf etma, shu qimmatli zamonni  
Sa'y et, jadal et, ilmu fununa harakat qil,  
Boq, nayladilar hikmat ila ushbu jahonni*




Abdulla Avloniy o'z ona tilini mukammal bilish, har bir so'zni o'z o'rnida ishlatish, milliy adabiy tilining taraqqiysi uchun jonkuyarlik qilish zarur, - deydi.

Har bir millatning dunyoda borligin ko'rsatg'on oynai hayoti: til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmoq millatni yo'qotishdek gapdir qabilidagi Avloniyning fikrlari bugun ham barchamizning qulog'imiz ostida jaranglab turibdi.

Avloniy, Hamza va Cho'lpon ijodini, xususan, lirikasini kuzatib yaqindan tanishib chiqar ekanmiz, ulardagi obrazlarning mumtoz adabiy obrazlardan farq qilishining guvohi bo'lamiz. Avloniy lirikasida asosan mumtoz obrazlarga yangi davr talabidan kelib chiqilgan yangi ma'no yuklashga intilishning ustuvor ekanligi namoyon bo'ladi.

Hamza ijodida ham shu kabi holatni kuzatamiz, qolaversa, Hamza endi lirik qahramon qilib oddiy xalq vakillarini ko'rsatishni ko'paytirganining ham guvohi bo'lishimiz mumkin.

Cho'lpon lirikasi esa o'ziga xos motivlar bilan boyitilgan. Uning ijodi aksar yo'l, yulduz, yo'lovchi obrazlari ko'zga tashlanishi bilan xarakterli hisoblanadi.



Abdulla Avloniyning Hijron, Nobil, Indamas, Shuhrat, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chegiboy degan taxalluslari bo'lgan. Avloniy ijodi bo'yicha Begali Qosimov ilmiy izlanishlar olib borgan.

Abdulla Avloniy shoir sifatida o'nlab, yuzlab she'rlar bitgan. Ular xoh eski urf-odatlar haqida bo'ladimi, xoh muhabbat yoki maktab-maorif haqida bo'ladimi, hamma-hammasida inson va tarbiya, axloqiy go'zallik va ma'naviy boylik haqida kuylaydi. Shuning uchun ham uning she'rlarida xalq didaktikasi bilan yangi zamon pedagogikasi uyg'unlashib ketadi. "Maktab" she'rida:

*Maktab misni tillo qilur,  
Maktab sizni mullo qilur.*<sup>25</sup>

Jadid adabiyotining yirik vakillaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy edi. Hamzadan katta adabiy-madaniy meros qolgan. Hamza ijodini o'rganish uning tirikligida – 20-yillarda boshlangan. 30-yillarga kelib hamzashunoslikda Sotti Husayn, Yusuf Sulton, Komil Yashin, Izzat Sulton, Homil Yoqubov faollik ko'rsatdi. Hamzashunoslik ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi. Hamza ijodining mavzular doirasi, g'oyaviy mundariyasi, o'ziga xos xususiyatlari, xalqchilik, zamonaviylik, an'ana va novatorlik masalalarini yoritishga e'tibor kuchaydi. Ibrohim Mo'minov, Komil Yashin, Izzat Sulton, Yusuf Sulton, Vohid Zohidov, Laziz Qayumov, Mahmudali Yunusov, Tursun Sobirov, Hafiz Abdusamatov kabi taniqli olimlar adib ijodini turli rakurslarda tadqiq etishdi. Mustaqillik davri imkoniyatlari, shart-sharoit va erkinlik hamzashunoslik sohasida yangi tadqiqotlar bajarilishini taqozo etadi.

Hamza ijodining boshlanmasi 1905-yillarga to'g'ri keladi. U dastlabki she'rlariga "Nihon" ("Yashirin") taxallusini qo'ygan. Hamzaning dastlabki she'rlarida Muqimiy va Furqat singari ma'rifatparvar shoirlar yo'lidan borish sezilib turadi. Bu hol Hamza g'azallari vazni, qofiyasi, radifi, mavzusida ko'rinadi.

Shoirning "Ey ko'ngil" she'rida zulmatda qolgan qalblarga chirog' bunday ta'riflanadi:

*"Ey ko'ngil, istar esang zulmat qulubingga chirog',  
Ahli donish suhbatidan bo'lmagil hargiz yirog',"*

---

<sup>25</sup> Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. –T.: Ma'naviyat, 2009. B 121.

Xo'sh, donolar suhbatidan ne foyda? Shoir bunga qanday javob beradi?

*“Matlabing rahmat esa xulq-u adabda qoin ul,  
To iki dunyoda topgil davlati fazl-u farog’,”*

Hamzaning ilm-u adab borasidagi qarashlari “Ilm-u axloq-u adab” nomli she’rida o‘z badiiy ifodasini topadi:

*“Kimki ko‘rmas maktab-u ustod-u ta’lim-u adab,  
Farqi yo‘q hayvondin oni bo‘lsa bing oliy nasab.  
Odamiyat mevasi, insoniyat bog‘i aro,  
Beadablar biyd yanglig‘ bo‘lg‘usi oxir xatab”.*

Cho‘lpon o‘zbek she’riyatida tong yulduzi kabi porloq iz qoldirgan iste’dod sohibidir. U yangi davr adabiyotiga har jihatdan xalqchilik ruhini bag‘ishladi. Shoir ijodining navqiron yillari xalq, millat taqdiri hal bo‘layotgan suronli yillarga to‘g‘ri keldi. Shuning uchun ham shoir she’rlarining kattagina qismini ijtimoiy-siyosiy she’rlar tashkil qiladi. Zero, bu davr talabi edi. Taniqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov quyidagi fikrlari orqali shoir iste’dodiga xolis baho bera olgan edi: “Uning shoirona qalbi olamni juda nozik his qilar, barcha murakkabliklarga, jamiki alg‘ov-dalg‘ovlarga, shurish-u po‘rtanalarga, kulfat-u mushkulotlarga o‘zi xos tarzda akssado berardi. Uning o‘tkir nigohi inson ruhiyatining eng olis puchmoqlarigacha yetib borar, teran tafakkuri esa turfa xil hodisalar qatidan harakat nuqtalarini kashf qilardi. Cho‘lpon mahorati shunchalar yuksak ediki, u qalamning bir yengil harakati bilan so‘z lashkarini istagan izmiga sola bilardi”.

Abdulla Qodiriy uni “Ozodlik shoiri” deb, atagandi. Cho‘lpon siyosiy lirikada shunday darajaga yetdiki, bu darajaga hali hech kim ko‘tarila olmagandi. XX asr avvalida davr jarohatini o‘z dardi ila qabul qilgan va yurt ozodligi, uning porloq kelajagi uchun kurashgan, bu qutlug‘ yo‘lda aziz jonlarini bergan shaxslar qatorida Cho‘lpon ham adabiyotda o‘zini ko‘rsata oldi. U butun bir millat oldiga davr qo‘ygan ulkan, kechiktirilmas muammolarni, avvalo, to‘g‘ri idrok etgan, so‘ngra asosiylarini muvaffaqiyatli hal etgan Cho‘lponning birgina maqsadi – Vatan ozodligi edi. Cho‘lpon ma’rifatsiz erkka, erksiz esa ma’rifatga yetishmoq mushkulligini tushungan shoir edi. Cho‘lpon she’riyatining aksariyatida ozodlik g‘oyasi tarannum etilgan edi. Xalq ham moddiy, ham ma’naviy

qashshoq bo‘lib, uni tubdan ko‘tarishning asosiy yo‘li ma‘rifat edi. Shu bois ham Cho‘lpon she‘riyatida yana bir dard – xalqni ma‘naviyatga, maorifga chorlov tug‘ildi. Cho‘lpon she‘riyati siyosiy she‘riyat bo‘lib jarangladi. 20-yillarda Cho‘lponning uchta she‘riy to‘plami bosilgan. Bular –“Uyg‘onish” (1922), “Buloqlar” (1923), “Tong sirlari” (1926). Cho‘lpon she‘riyati jahon lirik she‘riyatining mumtoz vakillari darajasiga ko‘tarilgan. “Go‘zal”, “Sezgi”, “Sirlardan”, “Men shoirmi?” singari she‘rlari bilan 20- yillarning boshlaridayoq barmoq vazniga asoslangan yangi o‘zbek she‘riyatini yuksak taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi.

Cho‘lpon lirikasida eng ko‘zga ko‘ringan motivlar “yo‘l”, “yo‘lchi”, “yulduz” kabilardir. Cho‘lpon o‘zining “Uzalgan qo‘l”, “Mening yo‘llarimda”, “Ulug‘ yo‘lda” kabi she‘rlarida “yo‘l”, “yo‘lchi” kabi motivlardan o‘rinli foydalanadi. Cho‘lpon 1923-yilda yozgan “Mening yo‘llarimda” sarlavhali she‘rini:

*“Mening yo‘llarimda cho‘zilgan tog‘lar,  
Qorga qo‘yin ochgan qator dovonlar...”*, -

deya boshlaydi. Shoir tanlagan yo‘l oson emasligini “ tog‘lar, qorli dovonlar” borligini aytadi. Bular chor hukumati amaldorlari, mahalliy amaldorlar edi. Cho‘lpon qadam tashlagan ERK YO‘LIDA, OZODLIK YO‘LIDA unga qarshi turuvchi to‘siqlar hamisha mavjudligini bilgan va ularga qarshi turish uchun o‘zida kuch topa olgan:

*“Qorga qo‘yin ochgan qator dovonlar,  
Sizga qarab turib kuchni chog‘ladim.  
Ko‘nglimda yo‘l yurish istagi qaynar,  
“Yurib o‘taman!” – deb belni bo‘ladim!”*

Chin sobitqadam inson bu to‘siqlardan qo‘rqmaydi va ortga qaytmaydi. Unga qarab uzatilgan qo‘llarga-da yordam qo‘lini cho‘zmoq uchun bel bog‘laydi. Biz ayni shu motivlarni Cho‘lponning “Buloqlar”idan suv ichgan Oybek, Usmon Nosir, Mirtemir kabi ijodkorlarda ham uchratishimiz mumkin.

Cho‘lpon 1926-yilda Moskvada yozgan “Uzalgan qo‘l” nomli she‘rida o‘zi yashayotgan “sovuq maskan”ni tashlashini, yo‘lida yana davom etishini, maqsadga yetmaguncha to‘xtamasligini aytadi. She‘rni quyidagi misralar bilan yakunlaydi:

*“Va, balki, kirmagan yo‘llarga  
Kirarman axtarib istakni!..”*

Shoirning istagi nima edi? Albatta, mustaqillik, erk, istiqloq, xalqning ma’naviy boyishi...

Cho‘lponning “Ulug‘ yo‘lda” she’rida o‘zgacha bir ko‘tarinkilik, ertangi kunga bo‘lgan umid, ishonch sezilib turadi. Shoir haqiqiy yurt farzandi sifatida millat taqdiri uchun kurashga chog‘lanadi, “yuragida saqlagan amal”iga erishmoq uchun kamarni mahkam bog‘lab, cho‘llar, dengizlardan bir qush misoli uchib o‘tishga-da o‘zida kuch topadi:

*“– Tezrak!*

*– Qanot!*

*Qushlar yanglig‘ uchaylik,*

*Keng cho‘llardan, dengizlardan kechaylik,*

*Sharqning eski chigalini yechaylik!..”*

Cho‘lpon real haqiqat, aniq voqea, hodisalardan ko‘ra, “Sharq”, “G‘arb”, “Muhit”, “Erk”, “Ko‘lanka” singari umumiy tushunchalarning badiiy inikosini berishga, umumiylik va mavhum lavhalarda lirik qahramon tili va dilida kechayotgan jarayonlarni ifodalashga intildi. Chunonchi, romantik badiiy tafakkurga xos xususiyatlardan biri shundaki, unda bepoyon olam sir-u sinoatlari, uzoq va yaqin o‘lkalar tarixi ham tasvir obyektiga aylanadi. Bunday ijodkorlarda poetik maksimalizm, ulkan ijtimoiy muammolar ildizini qidirish singari badiiy tadqiq belgilari kuchli bo‘ladi. Ma’lumki, XX asrga kelib Sharq-u G‘arb masalasi ma’naviy qarashlar maydoniga aylandi. Ma’lumki, Sharq mamlakatlarining G‘arb imperialistlari tomonidan bosib olinishi ularning shundoq ham ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotidagi sustkashlikni yanada chuqurlashtirib yubordi. Bunga qarama-qarshi o‘laroq ilg‘or kuchlar va ma’rifatparvar kishilarning Sharq ozodligi va mustaqilligi yo‘lidagi harakatlari, faoliyatlari kuchaya boshladi. Shu bois, badiiy ijodda ham siyosiy mavzular ko‘proq ko‘tarildi, Sharq va G‘arb mamlakatlarida yashovchi xalqlarning turmush tarzi qiyoslana boshlandi va bunday tafovutlar sababini aniqlash tamoyili kuchaydi. Ismoil To‘lakovning yozishicha, “Oq va Qora, Tun va Kun, G‘arb va Sharq asr boshlariga kelib badiiy ijodda o‘zlikni anglash va uni saqlab qolish tuyg‘ularini ifodalash vositasi sifatida she’riyatda mustahkam o‘rin tuta boshladi”. Aytish

mumkinki, Sharqni Misr ehromlari va Nil daryosi, fallohlar to‘yi, Suriya Shomiyu, Himolay tog‘i, hind qizi, Nishopur bog‘lari, Xayyom g‘azallari, Konfutsiy falsafasi, Zardusht ta‘limoti, Bedil kalomlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. ”Sharq” deganda shoir buyuk ma’naviyat saltanatini va bu madaniyatni barpo etgan shaxslar va davrlarni tilga oladi. Shoir Sharq tarixi va taqdirida nihoyatda murakkab, chigal jumboqlar borligi, uni ochmoq uchun tayyorlanish kerakligiga ishora qiladi. Bu borada shoir “Yorug‘ yulduzga” degan she’r yozadi. Bu she’rda shoirning niyati ko‘ngil va orzular armoni tarzida aks etadi, Sharq taqdiri lirik qahramon hayot-mamoti bilan bog‘liq ekanligiga ishora qilinadi. Lirik qahramon yulduzga qarab xitob qiladi:

*Go‘zal yulduz, nurli yulduz, tez so‘zla,  
Otalarning tarixdagi jafosin,  
Shul xatodan afsuslanib, yovlarning  
El ko‘ksida surgan ishrat, safosin.  
So‘zla, anglat o‘tgandagi turmushning  
Butun qonli, shonli jonli yerlarin  
Ko‘z oldimda jilvalanur yurt uchun,  
Jonlar berib, qonlar to‘kkan erlaring.*

Cho‘lponning 20-yillar poeziyasida Sharq va G‘arbning umumlashma timsollari, obrazlari ko‘plab uchraydi. Sharq va G‘arb shoir ijodida bir-biriga qarama-qarshi. Biri ikkinchisi ustidan hukmronlik qilishga intiluvchi, biri ikkinchisini xo‘rlab, zo‘rlab hayot kechirayotgan zulm va nohaqlik timsoli sifatida gavdalanadi. Sharqning yozini ham, kuzi va qishini ham tilga olar ekan, shoir lirik qahramon tilidan fasllarning barchasida ingrab yotgan Sharq obrazini ochib berishga harakat qiladi. Bir o‘rinda Sharq qoloqligidan, aksincha, ikkinchi o‘rinda yaralangan Sharq tanasiga malham bo‘lgisi keladi, xasta, tutqun Sharqning ahvoliga achinadi. Cho‘lpon qaysi mavzu, muammoga qo‘l urmasin, u Sharq-u G‘arb muammolari bo‘ladimi, tabiat manzarasimi, ishq-muhabbat kechinmalarimi, millat tarixi yoki istiqbolimi, erk orzusimi – barchasida shoir millatparvar lirik qahramon siymosida namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jadid adabiyotida ertangi kelajak uchun, ozod xalq, boy ma’naviyat uchun kurashish g‘oyasi hamisha targ‘ib etilgan. Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy,


Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Tavallo deymizmi, barchasining ijodida ilm, erk, hurlik, keng dunyoqarash uchun intilishga da'vatni ko'rishimiz mumkin. Shu bois ham poetik obraz va doimiy motivlar endi an'anaviy adabiyotdan farqli tarzda yangi ma'no uchun xizmat qila boshladi. Yangi adabiyotda endi gul ma'shuqa, yorni emas, balki erk, hurriyat, ilm, ma'rifat ma'nolarini bera boshladi. Bulbul esa shu gulning ishqida, ya'ni ma'rifat, mustaqillik, erkning ishqida, hajrida yonadi, unga yetishmoq uchun nola qiladi. U bu yo'lda jabr-u sitamlarga qarshi turishga tayyor, chunki erksizlik yo'q joyda jabr, zulm, zulmkorlik kabilar hech qachon tugamasligi ayon haqiqatdir. Oshiq unga zulm qiluvchi ag'yorlari, ya'ni mustamlakachilar, qolaversa markaziy hukumat buyrug'idan chetga chiqmay ularning yugurdagiga aylangan ba'zi mahalliy amaldorlar jabridan ozorlanadi. Jadid shoirlar, xususan, Avloniy, Hamza, Cho'lpon lirikasida bunday obrazlarni ko'plab uchratamiz. Ularning har biri bu kabi obrazlarni o'z poetik mahorati orqali go'zal tasvirlab bera olgan.

### III BOB. MA'RIFAT, MILLIY MUSTAQILLIK VA INSON ERKI – JADID SHE'RIYATINING BOSH MAVZUSI SIFATIDA

#### 3.1. O'zbek jadid she'riyatida ramziylik

Jadidlar mamlakat va xalq hayotini yaxshilashda, taraqqiyotni ta'minlashda istiqlolning o'zni, ma'rifatning ahamiyati buyuk ekanini tushunganlar. Binobarin, bu yolda sa'y-harakatlar qilib, qator muhim siyosiy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirganlar. Jadid yozuvchilari o'zlarining ma'rifatchilik, millatparvarlik g'oyalarini olg'a surishda milliy adabiyotda teran tomirlarga ega bo'lgan she'riyatlardan foydalandilar. Jumladan, Avloniy "O'z mamlakatimizda" she'rida maishat uchun pul-boylikni isrof etgan, ammo bola tarbiyasi uchun ko'zi qiymagan xasislarni "Ilm uchun pulni ko'zlari qiymas"ligini qoralaydi. Ayniqsa, uning "Adabiyot"(1915) kitobi bu jihatdan alohida ajralib turadi. A.Avloniy shunday yozadi:

*Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,  
Xanjar, olmosday bo'lur o'tkir.*



Ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, millatparvarlik, yurtsevarlik g'oyalari Hamza ijodining bosh yo'nalishini tashkil etadi. Hamza

“Yig‘la, Turkiston”, “Yaxshi holin yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston”, “Dardiga darmon istamas” kabi she‘rlarida hamon g‘ofillik uyqusidan uyg‘onmagan Turkiston o‘lkasini uyg‘onishga, ma‘rifatga, taraqqiyotga chaqiradi. Bu xalqchil va dolzarb asarlarda Hamza she‘riyatining g‘oyaviy-estetik xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Hamza yangi o‘zbek she‘riyatining ilk namunalarini yaratgan ijodkorlardan biri sifatida tarixda qoldi. Shu bilan birga, u yangicha mazmunni yangicha shaklda ifodalash uchun kurashib, poetik shaklni mukammallashtirish, badiiy asar tilini jonli xalq tiliga yaqinlashtirish borasida jiddiy izlanishlar olib borgan shoirdir.

Hamza Hakimzoda 1914-1915-yillarda yozilgan “O‘qi!”, “Ilm ista”, “Olim bo‘laylik”, “Kitob”, “Qalam”, “Maktab”, “To‘g‘ri so‘zla”, “To‘g‘ri so‘z bola”, “Ilm-u axloq-u adab”, “Qimorning boshi”, “Bolaning yomon bo‘lmog‘iga sabab bo‘lgan onaning jazosi” kabi pedagogik she‘rlarida ilm-ma‘rifat, axloq-odob, to‘g‘rilik, halollik, chin do‘stlikni targ‘ib qiladi. “Ilm ista” she‘rida shoir mehnatkash ommaga qarata deydi:

*“Olamning xurshidi kundir, odamning xurshidi ilm,  
Olamning zulmoti tundir, odamning madori ilm”.*

Bu tasvirlardan ko‘rib turibdiki, shoir kunni olamning xurshidi bo‘lgan quyosh qanday yoritsa, ilm ham insonni shunday go‘zallashtiradi. Ilm – odamning xurshididir. Agar tun olamning zulmati bo‘lsa, ilm insonning madoridir. Mana shu o‘rinda Hamza Hakimzoda Niyoziyning she‘riy san‘atlardan mohirlik bilan foydalanishini ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni shoir kun-tun, xurshid-zulmot so‘zlarini qo‘llash orqali tazod san‘atini yuzaga keltirmoqda.

Hamza asarlaridagi g‘oyalar xalqlar do‘stligi tamoyillariga asoslanadi. Hamzaning 1915-1916-yillarda nashr etilgan “Oq gul”, “Qizil gul”, “Sariq gul”, “Yashil gul”, “Pushti gul”, “Safsar gul” nomli she‘riy to‘plamlarida xalqparvarlik g‘oyalari bo‘rtib turadi.

Mardikorlik voqealari deb nom olgan xalq ozodlik harakati, tabiiyki, o‘sha davr Turkiston vaqtli matbuotida o‘z ifodasini topmadi. Chor senzurasiga bunga yo‘l qo‘ymas edi. U biroz keyin 1917-yilgi fevral inqilobidan so‘ng ko‘rindi. Mashhur Hamza Qo‘qon va uning atrofida bo‘lib o‘tgan xalq g‘alayonlarini tasvirlar ekan:

*Na kun o 'lmishdi, na xil o 'lmishdi zamon,  
Nechaning qo'lida dandoni, to 'luv og'zida qon.  
Necha minglab kishilar o'ldi vatan birla xazon,  
Butun ovozi jahon tutdi musulmonni yomon... –*

deb yozadi. Shoir bu satrlarda nima demoqchi bo'ladi? U millatining, Vatanining yorug' kunga chiqolmayotganini aytadi. Yurtdagi savodsizlik qa'riga tushgan, johillik botqog'iga botgan insonlar xuddi ongsizdek bo'lib qolganlar. Ular mustamlakachi hukumat nimani buyursa, shuni hech bir mulohazasiz bajardigan bo'lib qolganlar. Qo'lga dandon pichog'ini olmoqdan, o'zgalar qonini to'kmoqdan-da qaytmaslar. Bunga chidolmagan musulmonning ovozi esa butun dunyoni tutgay. Mana Vatan, millat taqdiri qay darajaga qadar yrtib brogan edi. O'z davrida Alisher Navoiy "insonni so'z ayladi judo hayvondin" deb aytgani barchamizga ma'lum. Hamza Hakimzoda Niyoziy esa ta'lim-u adabdan yiroq kishini hayvondan farqi qolmasligini ta'kidlaydi va ta'lim-tarbiyaning darajasini yanada ko'taradi. Hamza xuddi shu holatning sababini yigitlar va qizlar o'rtasidagi aytishuvda keltiradi:

*Erlar:*

*Tanda g'ayrat, ko'zda ibrat, dilda himmat yo'q,  
Ilm-u adab, xulq-u ismat, or-u iffat yo'q.  
Xotin dunyosida sizdek, jonim onalar,  
Milliy burchin o'tolmagan hech millat yo'q.*

*Qizlar:*

*Tanda g'ayrat, ko'zda ibrat, dilda himmat ko'p,  
Milliy burchni o'tamakka ilm-u san'at yo'q.  
Ruhoniylar, ota-onalar millata mas'ul,  
Chunki bizning yo'limiz masdud, hech HURRIYAT yo'q"*

Ko'rish mumkinki, bora-bora barcha ilmsizlik va qoloqliklarning yagona ustuvor sababi – erksizlik, hurriyatga ega emaslik. Hamzaning savol-javob shaklidagi bu munozarasi ham badiiy tasvirga boy. Masalan, tan, ko'z kabi so'zlar tanosubni yaratmoqda.

Cho'lpon ijodida yil fasllari, tabiat lavhalari, turfa ranglari musavvirona aksini topadi. Cho'lponning otashin millatparvarligi uni millat istiqboli uchun qayg'urishga undardi, shuning uchun u millat badanidagi hali o'chmagan kishan izlari haqida fig'on qilar, tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka boshiga ko'lanka tashlab

turgan qora bulutlardan nafratlanar, sustlashgan yuraklarni erk uchun, insoniy qadr-qimmat uchun kurashga chorlardi. Cho‘lpon mustamlakachilar qo‘lida qolgan Sharq hayotini juda ko‘p she’rlarida ifodalagan. Xususan, ”Sharq nuri” nomli she’rini quyidagi satrlar bilan boshlaydi:

*“So‘ng davrda yo‘qsul Sharqning tarixi  
Bir bet bo‘lsun oq satrni ko‘rmadi.”<sup>26</sup>.*

Bir qarashda bu satrlardagi ma’no umumiydek tuyilishi mumkin. Lekin Cho‘lpon bu umumlashma misralar davomida bir paytlar Yer yuzida ulug‘ va shonli madaniyat yaratgan Sharq “chetlar panjasida ko‘z yoshli” bo‘lganidan, Sharq tuprog‘i mana shu ko‘z yoshlarga qorishib ketganidan o‘kinadi.

Hamisha el-yurt erki deya jon kuydirgan Cho‘lpon, hattoki, tabiat chizgilariga bag‘ishlangan lirikasida ham xalq tasvirini yaratadi. Ha, Cho‘lpon bu mavzuga qayta-qayta murojaat qilaveradi. Chunki Cho‘lpon uchun millat taqdiri hamisha dolzarb masala edi. ”Kuz” sarlavlali she’ridan keltirilgan quyidagi parchaga e’tibor qarataylik:

*“Ko‘m-ko‘k ekan, sarg‘aydilar yaproqlar –  
Og‘riq, mag‘lub, tutqun Sharqning yuzidek.  
Bo‘ronlarning ko‘zlarikim, o‘ynoqlar,  
G‘olib G‘arbning qonga to‘lgan ko‘zidek.  
Qora bulut to‘sadikim, ko‘klarni –  
Sharqni yopgan parda yanglig‘ yopmishdir”<sup>27</sup>.*

Ko‘ramizki, Cho‘lpon kuzning sarg‘aygan yaproqlarida sharqliklarning yuzini, o‘ynoqlayotgan bo‘ronlarda esa g‘arbliklar ko‘zini ko‘radi. Shoirning nazdida, qora bulutlar ham osmonni emas, mazlum xalqning ko‘zi-yu yuzini qoplab olgan. Shu sabab ham sharqliklar ko‘z oldilarida bo‘layotgan haqsizliklarni, adolatsizlikni to‘liq ko‘ra olmaydilar, tahlil eta olmaydilar. Bu qora bulut oqibatida o‘z ko‘zlaridan oqqan yomg‘ir tomchilardan botqoqqa aylanayotgan tuproqqa qorilajaklarini xayollariga-da keltirmaydilar. Misra boshida aytilyapti, “ko‘m-ko‘k ekan sarg‘aydilar yaproqlar” deb. Biroq ko‘m-ko‘k barglarning sarg‘ish tus olganini ko‘ra olganlar juda oz edi. Ko‘z oldidagini ko‘rolmaganlarning, o‘z

<sup>26</sup> Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. T.: 1991. –B. 378.

<sup>27</sup> O‘sha manba, 414-bet.

boshida o'ynoqlayotgan qilichdan bebahra bo'lganlarning xayollari esa hamisha go'zal bo'laveradi-da. Cho'lpon shuning uchun yozadi:

*“Xayol, xayol... Yolg'iz xayol go'zaldir,  
Haqiqatning ko'zlaidan qo'rqaman”, – deb.*

Jadidlar esa xalq ko'zini to'sib turgan mana shu pardalarni ochib tashlab, ularni xayol uyqusidan uyg'otishga bel bog'lagan edilar.

“Bahorni sog'indim...” she'rida shoir uchun bahor shunchaki yil fasllaridan biri emas edi, bu sog'inishlarga sabab bo'lgan bahor o'z yelkasiga katta bir majoziy ma'noni ortib olgandi. Cho'lpon uchun kuz izg'irini-yu barglar sarg'ayib so'lishi mustamlakachilik davri bo'lsa, bahor istiqloq va istiqbol haqidagi o'ylarni, “erkin tilaklarni” anglatardi. Shu boisdan shoir she'riy misralarga bunday yakun yasaydi:

*“Yo'q... o'lim yo'qdir!  
Yolg'iz bir o'chib, bir so'nish bordir.  
Bir o'chib, so'nib... yana yonish bor.  
Yana bahorlar,  
Yana lolalar,  
Yana siz, ey... erkin tilaklar!..”*

Cho'lponning “Buzilgan o'lkaga” she'rida vatanimiz tarixining eng og'ir davri, davlat mustaqilligidan ayrilgan paytlari yorqin tasvirlangan. Filologiya fanlari doktori Ibrohim Haqqulov shoirning “Buzilgan o'lkaga” she'ri to'g'risida mushohada yuritarkan, aynan mana shunday she'rlar inson ongida tarixni bilmaslik oqibatida shakllangan bo'shliqni to'ldirishini aytadi va bunday she'r yozish uchun faqatgina shoir bo'lishning o'zi kamlik qilishini alohida ta'kidlab o'tadi. Shoir she'rda “tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka”ga qarata bunday ritorik so'roq beradi:

*“Ey, tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka,  
Nega sening boshing uzra quyuq bulut ko'lanka?”*

Shu she'r davomida shoir xalqning yigit-u qizini yodga oladi:

*“Tumorchalar, hamoyillar taqingan,  
Dalalarda lola bargi yopingan,  
Tog'-toshlarda o'yin qilgan,  
Chopingan*

*Go‘zal qizlar, yosh kelinlar qayerda?  
Ot minganda qushlar kabi uchg‘uvchi,  
Erkin-erkin havolarni quchg‘uvchi,  
Ot chopganda uchar qushni tutquvchi,  
Uchar qushday yosh yigitlar qayerda?’’<sup>28</sup>*

Mana bu xalq avval qanday edi, demoqchi bo‘ladi shoir. Shu misralarni yozayotganda bu “zo‘r o‘lka” ning “o‘z erkiga zor o‘lka”ga aylanib qolgani shoir yuragini kemtigan bo‘lsa, ajab emas. Shoir xalq tinmay ishlasa-yu, nahot rohatini ko‘rmasa, qullikdan ozod bo‘lmasa deya yonadi. Shoirning ritorik qaytariqlariga javob beruvchi bir so‘z bor – ZULM. Zulm qilinganlar esa MAZLUMlardir. Bu tushunchalar shoir uchun e‘tiborlidir. ”Vijdon erki” nomli she‘rini mana shunday tutqin, ezilgan, qiynalgan, yo‘qsil ellarga murojaat bilan boshlagan shoir “Ehtimolki, zulm oldida har narsa bo‘yin egishi mumkin, zolim yerga, insonga, hayvonga egalik qilishi mumkin, biroq erkin vijdonlarga ega bo‘la olmaydi” degan hukm bilan yakun yasaydi:

*“Hayvonlarga, insonlarga  
Zolim ega bo‘lmay qolmas.  
Faqat erkin vijdonlarga  
Ega bo‘lmoq – mumkin emas!”*

Cho‘lpon she‘rlarining aksarini ko‘tarinkilik bilan yakunlashga intilgan, chunki uning ertangi kunga bo‘lgan ishonchi mustahkam edi. Shu o‘rinda “Kishan” she‘rida keltirilgan quyidagi baytlarga e‘tiborimizni qaratamiz:

*“Qulf bilan sening erkingda ko‘p yillar qolib ketdim...  
Faqat har tebranishdan qutulishlikni umid etdim.  
Kishan, gavadadagi dog‘ing hanuz bitgani yo‘qdir,  
Faqat butkul qutulmoqqa umidim endi ortiqdir!..”*

Cho‘lpon Sharq farzandi edi. Uning tomirlarida zulmga qarshi hamisha ko‘pirib turuvchi sharqliklar qoni oqqan. Bu ko‘pirish esa o‘zini namoyon etmasdan turolmasligi bor gap edi. Cho‘lpon xalq tili bilan aytganda, “Och qornim – tinch qulog‘im” qabilida ish ko‘ruvchilardan emasdi. U haqiqatni ochiq aytgan.”Qizil baynalminal” she‘rida yozadi:

---

<sup>28</sup> O‘sha manba, 415-bet.

*“Havo buzuq... To‘g‘ri, Sharqning havosi  
Necha yildir juda yomon buzulg‘on;  
Avvali buzg‘on oppoq qo‘llar jafosi.  
Yozmishig‘a qora chiziq chizilg‘on  
Ko‘mir kabi bulutlari – yot ellar;  
Sharq ellari... buzuq, quruq yerlar...  
Sharq ellari asir kabi ishlarlar,  
Bir hovuch ham kelmaydigan xalq uchun”.*

Shoir Sharq ijtimoiy hayotining o‘zgarishini havoning o‘zgarishi orqali ifodalashga kirishadi, musaffo Sharq osmonidagi bulutlar rangini esa qora ko‘mir rangida ko‘radi. Natija esa ayon, musaffo osmonda endi qora bulutlar hukmron. Qora bulut xalq boshiga yana o‘sha yomg‘irni olib keladi. Cho‘lpon uchun esa yomg‘ir xalqning ko‘z yoshi edi. She‘r davomida sharqliklarning yeyish uchun noni yo‘qligi, non topilsa, choy topilmasligi aytilar ekan, mustamlakachilarning esa yeydigan narsalari shunchalik ko‘p va xilma-xilki, ular yeyayotgan yemishlariga nom topa olmayotganliklari, boyliklarini sig‘dirishga joy topa olmayotganliklari ajoyib tarzda zidlantirilganining guvohi bo‘lamiz:

*“Sharqli kishi yemoq uchun non topmas,  
Non topolsa, quruq non bor, choyi yo‘q.  
Bir hovuchlar yemagiga nom topmas,  
Boyliklarni sig‘dirishga joyi yo‘q...  
Sharqda mana bir oila ichida  
Olti-yetti kishi ochdan o‘lmishdir,  
Ana qara, yosh bog‘chaning ichida  
Ko‘p chechaklar ochilmasdan so‘lmishdir”.*

Shoir ijodidagi ijtimoiylikka yo‘g‘rilgan baytlarni baholi qudrat tahlilga tortar ekanmiz, shuni unutmasligimiz kerakki, Cho‘lpon hamisha ertangi kunga ishonch bilan yashagan. Bugun zulm ko‘rayotgan yurt ertaga erkin yashashiga, “bir hovuch xalq” (Cho‘lpon ta‘biri) uchun asirlar kabi mehnat qilayotgan kishilar ertaga mehnatidan kelgan daromadni o‘z kissasiga solishiga ishonar edi. Cho‘lpon o‘zini uzoq yo‘lga chiqqan yo‘lovchi deb bilgan. Shoir uchun bu yo‘l – “Yurt yo‘li” edi. Shoir uzoq yo‘lda borar ekan, o‘ziga yarim yo‘lda qoldirib ketiladigan hamroh sifatida yulduzni tanlaydi. Xo‘sh, doim o‘z she‘rlarida astronomik jismlarga,

ayniqsa, yulduzga qayta-qayta murojaat qilaverishdan charchamaydigan shoir ne sababdan yulduzni yarim yo‘lda qoldirib ketmoqchi? Bu savolga javobni shoir mana bu misrada keltiradi “Ul yulduzning tugalishi kunduzdir”. Mana buni badiiy-hayotiy haqiqat desa bo‘ladi. Demak, shoir – yo‘lchi, uning yo‘li – yurt yo‘li, yulduz esa hamroh. Mulohaza qiladigan bo‘lsak, yulduz tunda chiqadi, tun esa qorong‘u bo‘ladi, unda yo‘lchining hozir ketayotgan yo‘li qorong‘u bo‘lib chiqadi. Hayotiy haqiqatki, tong yorishganda yulduz ko‘zga ko‘rinmaydi, odamlar bu holatni “ yulduzlar kirib ketdi” deyishadi. Shoir xalq erkinining qo‘lga kiritilishini “kunduz” deyapti. Bu yerda shoir mahoratida va tasavvuriga baho berishda yana bir jihat e’tiborliki, xalqimizda ota-bobolarimizdan qolgan bir gap bor “ tunda yulduz chiqsa, ertasi kuni havo ochiq, quyoshli bo‘ladi” deyishadi. Cho‘lpon shuning uchun o‘ziga yulduzni hamroh qilib oladi. Shoir “yulduz”ga katta bir vazifani yuklab qo‘yadi va shu orqali o‘zidagi ozodlikka bo‘lgan umid uchqunlarini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. She’rni quyidagi misralar bilan yakunlaydi:

*“Uzoq yo‘lning yo‘lchisiman, boraman,  
Istagimni bu yo‘llardan olaman!..”*

Cho‘lponning mazkur she’ri 1922-yilda yozilgan. Shoir misralar uchun qalam tebratmasin avval ham o‘zining va xalqning ulug‘ yo‘lda ekanligini his qilgandi, shu boisdan ham u 1920-yild yozgan she’riga “Ulug‘ yo‘lda” deb nom beradi. Bu yo‘lda cho‘llar, dengizlar, bosh-uchini tanib bo‘lmaslik izlar borligini badiiy akslantirgan ijodkor bu yo‘llardan yuragida saqlab yurgan amali – MILLAT OZODLIGI bilan borishini aytadi va barchani tezroq ildamlashga chorlaydi:

*“Mahkam qilib bog‘lanilgan kamarlar,*

*-Tezrak!*

*-Qanot!*



*Qushlar yanglig‘ uchaylik.*

*Keng cho‘llardan, dengizlardan kechaylik,*

*Sharqning eski chigalini yechaylik!”*

Haqiqat va hurlikni o‘ziga shior qilib olgan Cho‘lpon hayoti bir tekisda kechmasligi aniq edi. Ibrohim Haqqul o‘zining: “Cho‘lpon – ulug‘ g‘oya va kuchli maslak shoiri. Yolg‘izlik va ilojisizlik azoblari ko‘nglini qamrab olgan chog‘larda ham u Turkistonni ozod va

mustaqil ko‘rish, ona Vatani uzra hurriyat va erk bayrog‘ini baland ko‘tarish orzusi bilan nafas olgandir” – degan fikri orqali shoirning hayot yo‘lidagi qiyinchiliklarga qaramasdan o‘z qarashlarida sobit tura olishiga munosib baho bergan.



Xulosa qinib aytganda, jadid adabiyoti ommani g‘aflat uyqusidan uyg‘otdi, ma‘rifatni, taraqqiyotni ulug‘lab, xalqni yangi jamiyat, yangi hayot qurishga hozirladi. Ayni vaqtda, Muqimiy, Komil, Furqat singari ma‘rifatchilardan so‘ng yangi o‘zbek adabiyotining tamal toshini o‘rnatdi. Yangi o‘zbek adabiyoti ana shu tarixiy voqea-hodisalar zaminida O‘zbekiston ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarga faol aralasha bordi. 20-yillar o‘zbek adabiyotining vujudga kelishida Hamza Hakimzoda Niyoziy, S.Ayniy, A. Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, M. So‘fizoda, Abdulla Avloniy, G‘ayratiy kabi yozuvchilar faollik ko‘rsatdilar. Ular lirikada ramziylikdan zamona talabidan kelib chiqib foydalandilar, yangidan yangi ma‘noa yaratdilar. Ular mustamlaka davridagi milliy zulm va ijtimoiy adolatsizliklardan qanchalik aziyat chekmasin, qanchalik qiynalmasin hech qachon tushkunlikka tushmadi. Kelajakka komil ishonch bilan qarab adabiyot imkoniyatlaridan foydalangan holda dalil ijod etdilar. Ular ijodida ko‘plab obraz, timsollarni uchratamiz. Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz joizki, ular ijodida ramziylikka ham katta ahamiyat qaratilgan. Xatto, ularning aksariyat she‘rlaridagi oddiy ko‘ringan detallar ham o‘ziga katta bir ramzni yuklab olganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ularga qanday ma‘no yuklangani esa misralardan misralarga o‘tilgani sari ayonlashib boraveradi.

### 3.2. Ma'rifat va ozodlik g'oyalarining badiiy in'ikosi

Adabiy turlar ichida lirika o'zining subyektivlik xususiyati bilan ajralib turadi. Shoir o'z o'ylari, hissiyotlari bilan birikib ketadi. Bu hol ishqiy lirikada ham, peyzajda ham, ijtimoiy lirikada ham yaqqol aks etadi. Shoir sevgisining majnunlik darajasiga yetishi uchun faqat bir suluv qiz bo'lishi shart emasligini, ya'ni Vatanni, millatni ham junun bo'lib sevisish mumkinligini jadid shoirlari isbot qilib berdi.

Avloniyning to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomli majmuasi 1901-1918-yillar orasida bir nechta nashr qilindi. Avloniyning poetik merosi ishqiy namunalardan holidir. Bu shoir ijodining o'ziga xos jihati bo'lib, ko'proq ijtimoiy muammolarni el-yurt g'amini muhimroq deb bilganligidan, xalq va Vatan baxtsizligi, dardu tashvishlari oldida har qanday shaxsiy muhabbatni rad etganligidan dalolat beradi. Shoir o'z xalqini tezroq johillikdan xalos bo'lishga ko'zini ilm nuri bilan ravshan qilishga chaqiradi, bir-biriga nisbatan mehr-u shafqat o'rniga shaxsiy adovat urug'larini sochuvchi kimsalarni ezgulikka chorlaydi. "Dunyo fojiasidan", "Taajjublik hollar", "Falakdan bir shikoyat", "Aholi olamdan bir namuna", "Fig'on bulbul", "Turkiston tuprog'ini xitob" kabi ko'plab she'rlarida Avloniy beva-bechoralarning bu "olamni o'rab olgan g'avg'o"lardan xoru, farog'atdan benasib qolib azob chekayotganliklarini ifodalaydi. O'zining na o'tmishini bilmaydigan, na istiqbolidan umidi bo'lmagan, millatning vujudi tobora torayib borayotganligidan tashvishga tushadi. Xususan, "Ilm ahvolindan bir manzara" nomli muxammasida shunday yozadi:

*"Taraqqiy aylayur ag'yor, biz g'aflat quchog'inda,  
Taraddud qilmayin rohat, yoturmiz g'am po'chog'inda,  
Zamon bizlarni bir yon aylayur mehnat o'chog'inda,  
G'animatdur otilmak ilm bog'ina bu chog'inda,  
O'sonmazmi, azizim, millati Islom g'aflatdan".*

Avloniyning "Istamas" nomli she'ri ham ma'no-mazmuniga ko'ra ahamiyatlidir. Undagi baytlarga e'tibor beraylik:

*Hech inson dunyoda faqru fanoni istamas,  
Hech tan o'z jonig'a ranju baloni istamas.*

*Aylama pandu nasihat nokasa behudakim,  
Qobiliyat bo'lmasa, sharmu hayoni istamas.*

She'rdagi ilmga bag'ishlangan misralarning mag'zi to'liqdir. Ilm yo'lidan adashish ikki dunyodan bexabarlikdir deya ta'kidlashni istaydi shoir. Chindan ham, ilmning bahosi, qadri juda baland bo'lib, hadislarida ham bir soatlik ilmning bir kunlik toat-ibodatdan afzalligi ta'kidlangan. Avloniy ta'rifini ko'raylik:

*Ilm rohidan adashgan besarupolar abas,  
Bexabar kavnayndan, rohi hudoni istamas.*

*Mayli jannat aylamas diydoridan ummidvor,  
Tolibi diydor emas, amri xudoni istamas.*

Hamzaning dastlabki asarlarida jaholatga qarshi ilm-ma'rifatni ulug'lash va uni targ'ib-tashviq etish asosiy o'rinda turadi. Zotan, bu asarlardan ma'lum bo'ladiki, Hamza she'riyati jadid adabiyotining yorqin namunasidir. Shoirning "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" majmuasiga kirgan "Oq gul", "Qizil gul", "Pushti gul", "Sariq gul", "Yashil gul", "Safsar gul", "Atirgul" deb nomlangan she'riy to'plamlari shundan dalolat beradi. Hamza atrofdagi voqelikka loqayd qarab tura olmasdi, shu bois shoir o'z davrining muhim ijtimoiy masalalarini yoritishga harakat qila boshladi. Bu ma'noda Hamzaning 1915-1917-yillarda yaratgan "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" nomli majmuasi alohida e'tiborga loyiq. Bu majmuada davr ruhi, millat turmushi, orzu-umidlari, yechimini topish lozim bo'lgan muammolar o'z aksini topgan. Shoir xalq baxtsizligiga faqatgina ma'rifat va millat birligi barham bera olishiga ishongan. Hamza ijodining ushbu bosqichida ma'rifatga chorlov ustunlik qiladi. Hamzaning dunyoqarashiga jadidchilik harakati jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Hamza ijodi jadid adabiyotining asl namunalari qatorida turadi. Ijodining dastlabki davrida Hamzaning an'anaviy mumtoz adabiyotga ixlosi baland bo'lib, o'z asarlarini shu yo'nalishda yaratdi. Hamzaning "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi" nomli uch darsligi va dastlabki "Devon"ida ham diniy va ma'rifatparvarlik mavzusidagi asarlar anchagina o'rin egallagan. Hamza ko'plab mamlakatlarda bo'lib, ulardagi hayot va rivojlanish darajalarini o'z yurtidagi holat bilan solishtiradi va ijtimoiy qoloqlikdan qayg'uga tushadi. Hamza bunday holatning asosiy sababi – ilmsizlikdir degan xulosaga keladi, xalqni ilmi bo'lishga, ma'rifat egallashga da'vat etadi. Boshqa millatlar turli ixtirolar qilayotgan bir paytda millati o'z erki uchun ham kurasha olmayotganidan eziladi va bunday yozadi:

*"Olim bo'lsak dunyoda  
Kelur har ish bunyoda,  
Biz ham suv osti kezib  
Ham ucharmiz havoda".*

Hamza Hakimzoda "Turkiston" she'rida:

*Turg'il, darddun jismingni sag'la, Turkiston,  
Danish o'tiga bag'ring chog'la, Turkiston,  
Belga himmat kamarin bog'la. Turkiston,*

*Ma'rifatga yetmoqni chog'la, Turkiston, —*  
deya jaholatga qarshi ilm-ma'rifatni targ'ib etgan bo'lsa,  
Abdulla Avloniy maktab-maorifni ulug'lab, ilmni har narsadan  
ustun qo'yadi:

*Ilm – bir gavhari noyob, yo'q o'lmas, bitmas,*

*Ilm – bir nuri ziyodirki, jilosi ketmas,*

Cho'lpon o'zbek she'riyatida Vatan va millat manfaati bilan yashagan shoir bolsheviklar olib borgan siyosatning mustamlakachilik mohiyatini fosh etishga, xalqni zulm va zo'ravonlikka qarshi hurriyat uchun kurashga da'vat etishga qaratilgan she'rlar yozdi ("Buzilgan o'lkaga", "Xalq", "Vijdon erki", "Kishan" va boshqalar) Cho'lpon bu she'rlari bilan adabiyotning kurash quroliga aylanishi mumkinligini isbotlab berdi. Shoirning yurak qoni bilan yozilgan bu she'rlari vatandoshlarida o'zbek diyoriga otashin muhabbat, mustamlakachilarga nafrat, erk va hurriyat g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini tarbiyaladi. Cho'lponning "ko'ngil lirikasi" an'analari keyinchalik Oybek, H.Olimjon, Mirtemir, Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi va boshqalar ijodida muvaffaqiyat bilan rivojlantirildi.

Shoir ijodiyoti uning ichki olami bilan qorishib ketgan. Zero, Ibrohim Haqqulov ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, Cho'lponning ruhiy tug'yon va milliy isyon bilan yo'g'rilgan ijodiyoti yonib-yolqinlanaveradigan alangaga o'xshaydi, qaysi tomondan qarasak ham "Kishan kiyma, bo'yin egma // Ki sen ham hur tug'ilg'onsen"("Ko'ngil" she'ridan) deyaveradi. Cho'lpon o'z ijodida hamisha soflikka intilgan, ya'ni u insonlar ko'nglini puch yong'oqqa to'ldirishni o'ziga munosib ko'rmagan. Shuning uchun ham Cho'lpon reallikdan qochmagan. Masalan, "O'zbekim" she'rida shunday yozadi:

*"Hurriyat bo'lganda sen kelding,*

*Minayin semirgan otga deb,*

*Og'zingga "mallalar" bir tepdi,*

*"Ma'rifat haromdur sartga", deb...*

*Og'zingdan qon keldi, yig'lading,*

*Ko'zingdan zaharli yosh keldi"*<sup>29</sup>.

---

<sup>29</sup>O'sha manba, 380-bet.

Mana haqiqiy tasvir. Mana realizm. Bu misralarga hech qanday sharh kerak emas, balki ularda tasvirlangan holatni anglash va his qilish kerak.

Shoir sevgisining majnunlik darajasiga yetishi uchun faqat bir suluv qiz bo'lishi shart emasligini, ya'ni Vatanni, millatni ham junun bo'lib sevisish mumkinligini Cho'lpon isbot qilib berdi, o'zi namuna bo'ldi. Axir, hukumatga qarshi bir og'iz so'z aytish peshonaga qarata o'q uzilishini aniq qilib qo'ygan pallada hokimiyatdagi adolatsizliklarni she'rga solib baralla:

*“Qayg‘uringiz:  
kishanlarni yasovchi  
ustalar,  
Boshqalarni tubanlar deb atovchi  
xo‘jalar  
Sizning uchun yoz boshining qoridek  
Eruv kunlar keladir,  
Sizning uchun alvastining zoridek  
yig‘lar kunlar keladir...”*

deyish – bu elga bo'lgan oshiqlikning jununlik darajasiga yetganini ko'rsatardi. Zotan, shoir mana bu haroratli misralarni bejiz yozmagandi:

*“Endi har nafasda yana kuyaman,  
Faqat Majnun bo‘lib elni sevaman.  
Unga hurmat bilan bo‘yin egaman,  
Boshimni u uchun dorga qo‘yaman”.*

Cho'lpon yaratgan ikki yuzdan ortiq she'riy asarlarni el-yurt baxti, kelajagi, mustaqilligi, ozodligi uchun kurashning solnomasi deyishimiz mumkin. "Tilak yo'li" she'rida:

*“Ketgan yo‘lim to‘g‘ri yo‘ldir, ketamen,  
Qanday to‘siq mone bo‘lsa, o‘tamen,  
Men ketamen, tilak, deya ketamen,  
Hech tilaksiz quruq jonni netamen?”*

Bu misralar Cho'lpon aqidasiining mustahkamligi hamda Cho'lpon tanlagan yo'lning eng to'g'ri yo'l ekanligini oshkora kuylamoqda.

“Abdulhamid Cho'lponning Sharq ayollari xususidagi mulohazalari hozirgi kunda atroflicha tahlil etilmog'i lozim. Chunki shoir davr so'ragan o'sha mavzudan o'z qarashlarini bayon etish

uchun foydalangan”<sup>30</sup>. Cho‘lpon “Men va boshqalar” she‘rini yozishda sarlavhadan so‘ng “O‘zbek qizi og‘zidan”, deb yozib qo‘yadi. O‘zbekiston Qahramoni, olim va adib Ozod Sharafiddinov Cho‘lponning “Yana oldim sozimni” kitobiga yozgan so‘zboshisiga: ”Kulgan boshqalardir, yig‘lagan menman...” (Cho‘lpon tarjimai holiga dastlabki chizgilar) deb sarlavha qo‘yadi. Ha, bu misralarda yig‘lagan, nafaqat, o‘zbek qizi, balki xalqning yosh-u qarisi, hatto, ziyolisi edi.

Cho‘lpon she‘riyati bilan tanishar ekanmiz, ularning ichida “o‘zbek qizi og‘zidan” emas, balki yuragidan otilib chiqqandek tuyulguvchi baytlarni ko‘plab uchratamiz. Misol uchun, “Qiz qo‘shig‘i” she‘ridan olingan quyidagi baytlarni olaylik:

*Siqiq qafaslarda  
Yayray olmaymen.  
Jannat bog‘lar bor-ku  
Sayray olmaymen*”<sup>31</sup>.

Yoki:

*Hasratim ko‘p, elga  
Ayta olmaymen.  
Armonim ko‘p, dilga  
oylay olmaymen*”<sup>32</sup>.

Abdulhamid Cho‘lpon “Qush hadigi” she‘rida quyidagi misralarni yozadi:

*Faqat zaif vujudini qancha ursun devorlarga,  
Balki uning yumshoq tani to‘lib ketsun ol qonlarga*”<sup>33</sup>.

Bu tasvir qafasdagi qush haqida, lekin shoir bu bayt orqali haqiqiy qafasga solingan qushlar o‘zbek xotin-qizlari demoqchi bo‘layotgandir. Bu qushlarning faqat tanlari emas, yuraklari ham qizil qonlarga to‘lgan edi.

“Navro‘z kunida” she‘ridagi bu parchalar o‘zbek ayoli qismatiga achingan Cho‘lpon qalbidan sizib chiqadi:

*Navro‘z kuni erksizlarga erk berar,  
O‘zbek qizi erkli kunda bo‘sholmay,*

<sup>30</sup> B.Ro‘zimhammad. Cho‘lpon – tong yulduzi demak... –T.: O‘qituvchi, 1997. –B. 62.

<sup>31</sup> Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. –T.: 1991. –B. 68.

<sup>32</sup> O‘sha manba. 69-bet.

<sup>33</sup> O‘sha manba. 76-bet.

*Zindon kabi tor uyidan chiqolmay,  
Qalin,og‘ir devorlarni yiqolmay,  
Borlig‘ini keng dunyoga otolmay  
Chin erk kunni kuta-kuta telmirar...*<sup>34</sup>

Cho‘lpon o‘zbek xotin-qizlari dardiga malham qidiradi. “Kaptar” nomli she‘rida esa rivoyatlardagi botir qiz Semiramisga qarata quyidagicha nido qiladi:

*Ey, dengizning suvlaridan quvvat olgan botir qiz,  
Kel, mundagi tutqun qizga yolboraylik ikkimiz!”*<sup>35</sup>

“Shoir yashagan davrda yoshlarning savodi va istiqboli, o‘zbek xotin-qizlarining taqdiri masalasi millat va jamiyat oldida turgan eng dolzarb masala edi. Xotin-qizlar taqdiri va nafosatiga bag‘ishlangan she‘rlarida Cho‘lpon tabiat mo‘jizasi sanalmish ayollar dunyosi va qalbini nozik did bilan ilg‘ab oldi va shoh satrlarga joyladi. “Sharq qizi”, “Men va boshqalar”, “Qiz qo‘shig‘i”, “Yer asiralari”, “Paranji”, “Kelinchak”, “Zangbuning qizi” kabi she‘rlari bunga yorqin misol bo‘ladi”<sup>36</sup>.

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon har bir jamiyatning taraqqiy etganlik belgisi undagi xotin-qizlarning turmush darajasi bilan belgilanishini, o‘zbek ayoli nafaqat o‘z ozodligi, balki yurt hurriyati uchun ham kurasha oladigan kuchga ega ekanini bilardi. Shuning uchun ham aynan shu masalani ijodining yetakchi mavzularidan biriga aylantirdi.

Cho‘lpon “Sharq qizi” nomli she‘rida ham yana shu mavzuni qalamga oladi:

*Men uchun yorug‘ dunyo rohati –  
To‘t devor ichida ko‘zlar o‘ynatmoq,  
Menim uchun ulug‘ shodlik soati –  
Telba ko‘kragimda o‘ylar uyg‘otmoq...  
Men bir Sharq qizimen, Sharqning o‘zidek  
Butun tanim, jonim – xayol uyasi,  
Mening qora ko‘zim kiyik ko‘zidek  
Belgisiz ovchining o‘qin ko‘rguvsiz.*

---

<sup>34</sup> O‘sha manba. 25-bet.

<sup>35</sup> O‘sha manba. 60-bet.

<sup>36</sup> O.Sharafiddinov. Cho‘lponni anglash. 18-19-betlar.

Bu satrlarda keltirgan qalb nolalari Sharq qizi ko'nglidan sizib chiqmoqda. Uning ko'zlari faqat to'rt devorni tomosha qiladi, uning shodligi ko'nglidagi o'y-xayollarda aks etadi. Millatparvar shoir Sharq qizigina emas, balki Sharq millatlarining barcha xalqining hurligi-yu xursandchiligi faqatgina xayollarda qolmoqdaki, bu xayollar juda ko'p. Lekin bu Sharq qizi shundayki, u millatni hech bir belgisiz o'ziga asir qilib olayotgan ovchilarning o'qini ko'ra oladi. Cho'lpon ijodidagi, ayniqsa, ijtimoiy lirikasidagi yetakchi xususiyatlardan bo'lgan ritorik so'roqdan foydalanish bu she'r so'ngida ham qo'llanilgan:

*“Aytalarkim, yozda har bir joni bor  
Erkin nafas olar, shodlanar, yayrar.  
Aytmaylarkim, Sharqda bog'liq xotinlar  
Ul yorug' dunyoga na zamon kirar?”*

Bu misralarni o'qib, Cho'lpon bu yerda juda o'rinli savolni o'rta tashlaganini guvohi bo'lamiz.

“Bahorni sog'indim...” she'rida shoir uchun bahor shunchaki yil fasllaridan biri emas edi, bu sog'inishlarga sabab bo'lgan bahor o'z yelkasiga katta bir majoziy ma'noni ortib olgandi. Cho'lpon uchun kuz izg'irini-yu barglar sarg'ayib so'lishi mustamlakachilik davri bo'lsa, bahor istiqloq va istiqbol haqidagi o'ylarni, “erkin tilaklarni” anglatardi. Shu boisdan shoir she'riy misralarga bunday yakun yasaydi:

*“Yo'q... o'lim yo'qdir!  
Yolg'iz bir o'chib, bir so'nish bordir.  
Bir o'chib, so'nib... yana yonish bor.  
Yana bahorlar,  
Yana lolalar,  
Yana siz, ey... erkin tilaklar!..”*

Cho'lpon ijodi hamisha o'zining betakror jozibasi, tasvir uslubi, intimligi va ijtimoiyligi bilan ham adabiyot ixlosmanxdlari qalbiga kirib borgan. Cho'lpon ijodining yetakchi xususiyatlari bo'lgan ijtimoiy tushunchalar hamda ularning tasvir etilishidagi, beqiyos o'xshatishlardagi go'zallikning eng birinchi sababi esa Cho'lponning qalbidir. Bu qalb faqat adolat deya jar solgan. Baland minbarlarga qo'rqmay chiqib achchiq-achchiq haqiqatlarni baralla aytgan edi.

“Vijdon erki” nomli she’rini tutqin, ezilgan, qiynalgan, yo‘qsil ellarga murojaat bilan boshlagan shoir “Ehtimolki, zulm oldida har narsa bo‘yin egishi mumkin, zolim yerga, insonga, hayvonga egalik qilishi mumkin, biroq erkin vijdonlarga ega bo‘la olmaydi” degan hukm bilan yakun yasaydi:

*“Hayvonlarga, insonlarga  
Zolim ega bo‘lmay qolmas.  
Faqat erkin vijdonlarga  
Ega bo‘lmoq – mumkin emas!”*

Cho‘lpon she’rlarining aksarini ko‘tarinkilik bilan yakunlashga intilgan, chunki uning ertangi kunga bo‘lgan ishonchi mustahkam edi. Shu o‘rinda “Kishan” she’rida keltirilgan quyidagi baytlarga e’tiborimizni qaratamiz:

*“Qulf bilan sening erkingda ko‘p yillar qolib ketdim...  
Faqat har tebranishdan qutulishlikni umid etdim.  
Kishan, gavadadagi dog‘ing hanuz bitgani yo‘qdir,  
Faqat butkul qutulmoqqa umidim endi ortiqdir!..”*


Shoir ijodiyoti uning ichki olami bilan qorishib ketgan. Zero, Ibrohim Haqqulov ta’biri bilan aytadigan bo‘lsak, Cho‘lponning ruhiy tug‘yon va milliy isyon bilan yo‘g‘rilgan ijodiyoti yonib-yolqinlanaveradigan alangaga o‘xshaydi, qaysi tomondan qarasak ham “Kishan kiyma, bo‘yin egma // Ki sen ham hur tug‘ilg‘onsen”(“Ko‘ngil” she’ridan) deyaveradi.<sup>37</sup> Cho‘lpon o‘z ijodida hamisha soflikka intilgan, ya’ni u insonlar ko‘nglini puch yong‘oqqa to‘ldirishni o‘ziga munosib ko‘rmagan. Shuning uchun ham Cho‘lpon reallikdan qochmagan.

Cho‘lpon qaysi mavzu, muammoga qo‘l urmasin, u Sharq-u G‘arb muammolari bo‘ladimi, tabiat manzarasimi, ishq-muhabbat kechinmalarimi, millat tarixi yoki istiqbolimi, erk orzusimi – barchasida shoir millatparvar lirik qahramon siymosida namoyon bo‘ladi. Chunonchi, Cho‘lponning “Po‘rtana” she’ri erk sari intilgan lirik qahramonning qalb nidosi bo‘lib jaranglaydi. Bu she’rda shoir ikkita muhim masalaga o‘quvchi diqqatini tortadi: birinchidan, millat va mamlakat hayotida, butun dunyoda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarga ishora bor. Cho‘lpon she’riyatidagi

---

<sup>37</sup> Ibrohim Haqqul. Mushohada yog‘dusi. –T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2019. B 125.

nafosatga yo‘g‘rilgan badiiy g‘oyaning kuchi shundaki, u o‘z qalbida tug‘ilgan kechinmalar kurtagini atrofdagi barcha jonli va jonsiz narsalarga, insoniy dard va orzularga payvand qiladi, singdiradi va bu ruhiy jarayondan o‘zi ham kuch olib yangi manzil, yangi mavzu, yangi tuyg‘ular sari intiladi. Cho‘lpon poeziyasi o‘quvchini loqayd qoldirmaydi, o‘zligini anglashga, o‘zini - “Men erkinmanmi? Nega? Nima uchun?” - degan savollarga javob izlashga majbur qiladi. Ma’lumki, Cho‘lpon poeziyasi xalqchilligi va milliyligini belgilovchi mavzu, motiv va jihatlar xilma-xil.



Cho‘lpon yuz berayotgan holatlarni juda yaxshi anglagan. Bundan uning she‘rlari dalolat berib turibdi. Chunonchi, u “Yaproqlar” she‘rini O‘zbekistonda emas, balki Turkiyada e’lon qilgan. Vatanida buning imkoni yo‘qligini tushungan, degan fikr keladi xayolga:

*Qarg‘alar bog‘larda qag‘lashib qoldilar,  
Bilmadim, kimlarning qismati uzilur?  
Yoproqqa yopishib, bir changal soldilar,  
Bilmadim, kimlarning umidi yo‘q bo‘lur?  
Ey sovuq ellardan muz kiyib kelg‘onlar,  
U qo‘pol tovshingiz qorlarda yo‘q bo‘lsin!  
Ey menim bog‘imdan mevamni terg‘onlar,  
U qora boshingiz yerlarga ko‘mulsin!*

Shoirning bu qisqa satrlarida alam-iztiroblar, xalqqa begona boʻlgan eʼtiqodini majburlab tiqishtirganlar, poymol etilgan taqdirilar, Vatan haqida qaygʻurish ifodalangan. Oʻn yillar mobaynida Choʻlpon tanqid tigʻlari ostida yashadi. Oddiy jurnalistdan tortib respublika rahbari Akmal Ikromovgacha uning ijodi haqida salbiy munosabat bildirdi.

“Xazon” sheʼrida oʻzbek kuzining goʻzal manzarasi chizilgan boʻlib, unda Choʻlpon takrir sanʼatidan mohirona foydalanadiki, har bir soʻzning maʼno va tovush sigʻimlari favqulodda kengayib ketgandek boʻladi. Bor-yoʻgʻi ikki obraz-“gezargan tuproq” bilan “qizorgan yaproq” obrazlari kuzning oʻzbek diyoriga oʻziga xos xislatlari bilan kirib kelayotganini yaqqol koʻrsatadi.

*Kuz chogʻi... tuproqlar gezarib qoldilar,  
Gezarib qoldilar kuz chogʻi tuproqlar.  
Soʻng damda yaproqlar qizorib yondilar,  
Qizorib yondilar soʻng damda yaproqlar.  
Qargʻalar bogʻlarda qagʻlashib qoldilar,  
Bilmadim, kimlarning qismati uzulur?  
Yongʻoqqa yopishib, bir changal soldilar,  
Bilmadim, kimlarning umidi yoʻq boʻlur?*

Bu satrlardan oqib turgan musiqadan kuzning sokin va mungli kuylari eshitilgandek boʻladi.

“Koʻngil” sheʼrida Choʻlponning otashin ruhi aks etgan. U koʻngilga qarata murojaat qilib, oʻzini qiynayotgan barcha ogʻriqli savollarni beradi, dil dardlarini bayon etadi hamda uni hamisha ozod va hur boʻlib qolishga chorlaydi:

*Haqorat dilni ogʻritmas,  
Tubanlik mangu ketmasmi?  
Kishanlar parchalanmasmi?  
Qilichlar endi sinmasmi?  
Tiriksan, oʻlmagansan,  
Sen-da odam, sen-da insonsen,  
Kishan kiyma, boʻyin egma,  
Ki, sen ham hur tugʻilgansen.*

“Yongʻin” sheʼrini oʻqir ekanmiz, 20-yillarda mustamlakachi bolsheviklar tufayli oʻzbek yurti va oʻzbek xalqining boshiga tushgan falokatlarni koʻrgandek boʻlamiz. Shoir bu balo-ofatlarni

keltirgan, o'lkamizni vayron etib, daryo-daryo qonlarni oqizgan yovuzlarni la'natlamaydi, ularga g'azab va nafrat toshlarini otmaydi, balki mudhish tarixning shohidi sifatida yuragidan oqib turgan ko'z yoshlari bilan tarix sahifalariga qayd etadi:

*Shunday katta bir o'lkada yonmagan,  
Yiqilmagan, talanmagan uy yo'qmi?  
Bir ko'z yo'qmi qonli yoshi tommagan,  
Butun ko'ngil umidsizmi, siniqmi?  
Podalarning yaylovida bo'rilar  
Qonga to'ygach, uvlaylarmi ko'plashib,  
Yiqiqlardan o'liklarni to'plashib,  
O'tmi qo'yar alvastilar, parilar?*

Nihoyat, 1937-yil oxirida Cho'lpon "xalq dushmani" deb e'lon qilindi. Siyosiy tuzum uning Ahmad Zakiy Validiy bilan do'stligini, Boshqirdistonning milliy mustaqilligi uchun kurashdagi yordamini, Turkiston muxtoriyatidagi faol ishtirokini, jadidlar safida turib ochiq-oydin ifodalagan siyosiy qarashlarini unutmadi va kechirmadi. Ehtimol uning "aybi" eng mashhur va xalqaro miqyosda e'tirof etilgan o'zbek shoiri bo'lgani va xalq, ayniqsa, yoshlar orasidagi obro'-e'tiborini hech narsa tushira olmaganida bo'lgandir. Shaxsning buyukligi har doim o'z davrini ortda qoldirgan. Taqdir taqozosi bilan ular yo ko'klarga ko'tariladi, yo jismonan yo'q qilinadi. Ammo Abdulhamid Cho'lpon xotirasini yo'qotishning iloji yo'q edi, chunki uning she'rlari, g'oyalari, xalqiga bo'lgan muhabbati barhayotdir.

Cho'lpon ijodida zulm-keng ma'noli tushuncha. Mustamlakachilik davrida el-yurt boshiga tushgan barcha savdolarni faqat bir so'z bilan-"zulm" so'zi bilan ifodalash mumkin. Zulmning turlari va pog'onalari ko'p. Agar zolim insofsiz va odamlilik siyohidan mahrum bo'lgan bo'lsa, uning zulmiga bo'yin egmaslikning iloji yo'q. Ammo har qanday zulm jismga egalik qilsa-da, qalb va vijdonga egalik qilolmaydi:

*Zulm oldida har bir narsa,  
Ehtimolki bo'yin egar.  
Agar zulm avjga kelsa,  
Ko'k boshida yerga tegar.  
Hayvonlarga, insonlarga*

*Zolim ega bo'lmay qolmas.*

*Faqat erkin vijdonlarga*

*Ega bo'lmoq — mumkin emas!*

Xotin-qizlar taqdiri va nafosatiga bag'ishlangan she'rlarda Cho'lpon tabiat mo'jizasi sanalmish ayollar dunyosi va qalbini nozik did bilan ilg'ab oladi va shoh satrlarga joylaydi. "Sharq qizi", "Men va boshqalar", "Qiz qo'shig'i", "Er asiralari", "Paranji", "Kelinchak", "Zangbuning qizi" kabi she'rlar bunga yorqin misol bo'ladi. Shuningdek, shoir ijodining xalqchilligi uning muhabbat taronalarida ko'zga yaqqol tashlanadi, muhabbat mavzusidagi she'rlar shoirning poetik dahosi, uslubi va obrazli tafakkuri naqadar ko'pqirrali ekaniga yorqin misol bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, Avloniy, Hamza, Cho'lpon ijodini ma'rifat, mustaqillik, erk g'oyalarining tarannumisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ular ijodi bu kabi mavzularni bayroq qilib olgan edi. Ular ijodida bu mavzularning yetakchi o'rin egallashi esa davr taqozosi edi. Millat erki, Vatan mustaqilligi, ertangi ozod va buyuk kelajagi uchun erk, ilm-fan, ma'rifat va keng dunyoqarash kerak edi. Shu boisdan ham ular yurt ozodligi mavzusini birinchi darajaga ko'tarishdi. Millat yoshlarining kelajagi deb kuyib-yonishdi. Oilada ayollarning o'rni katta ekanligini anglab ayollarning ilm olishi kerakligini she'rlarida ifodalashdi. Millatning kelajagi buyuk va bardavom bo'lishi uchun yoshlarga mustaqillik va ma'rifat qanchalik zarur ekanligini anglagan jadid shoirlar she'rlarining ildizini aynan, erk, hurriyat, istiqbol, istiqbol, ilm, ma'rifat, madaniyat, ma'naviyat g'oyalari bilan sug'ordilar. Ular ijod namunalari bilan tanishganimizda xalqqa da'vat, kelajakka, erkka chorlov murojaatlarining ham mavjudligini ko'ramiz. Avloniy, Hamza, Cho'lpon ijodida ham ritorik so'roqlar mavjudligi fikrimizning isboti bo'la oladi. Jadidlar ijodida mustaqillik va ma'rifat masalari yonma-yon tasvir etiladi, buning sababi esa bu ikki tushunchaning bog'liqligidadir. Boisi ilmsizlik va qoloqlikning yagona sababi – erksizlik, hurriyatga ega emaslik. Jadid shoirlari ijodini kuzatib, shoir sevgisining majnunlik darajasiga yetishi uchun faqat bir suluv qiz bo'lishi kerak emasligini, ya'ni Vatanni, millatni ham junun bo'lib sevish mumkinligining guvohiga aylanassiz. Ular yaratgan yuzlab she'riy asarlarni el-yurt baxt-u iqboli, mustaqilligi, ozodligi uchun kurashning solnomasi

deb aytishimiz mumkin. Hech mubolagʻasiz aytishimiz mumkinki, jadid lirikasi oʻzidagi hurriyat uchun kurashga daʼvati orqali adabiyotning kurash quroliga aylanishi mumkinligini yana bir bor isbot etib berdi.

## XULOSA

XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-adabiy muhit yangicha fikrlaydigan, millat va mamlakat taqdiriga befarq qaramaydigan ijodkorlarni shakllantirdi. Avloniy, Hamza, Cho'lpon kabi jadid adabiyoti vakillari ana shu muhit qozonida qaynab, so'ngra o'z ijodiy yo'li va obrazlar dunyosiga hamda mustaqil estetik qarashlariga ega bo'lgan ijodkorlar sifatida namoyon bo'ldilar.

Ushbu monografiyaga xulosa qilib quyidagilarni aytishimiz mumkin:

- Avloniy, Hamza, Cho'lpon o'zbek xalqining XX asr birinchi yarmida ijod qilgan adiblar orasida o'ziga xos badiiy ifoda imkoniyatlariga ega bo'lgan shaxslar sifatida tarixda qoldi.

- Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho'lponning axloqiy, estetik qarashlari badiiy tasvir vositalari bilan boyitilgan, erk, istiqloq, ozodlik kabi ulug'vor g'oyalar bilan sug'orilgan ijodiy faoliyatida aks etadi.

- Jadidchilik harakatining vujudga kelishi, ko'p asrlardan beri davom etib kelayotgan milliy adabiyotning yangilanish jarayonlarini tezlashtirib yubordi. Zotan, milliy adabiyotning yangilanishi ijtimoiy hayot bilan uzviy bog'liq tarzda davr talabiga aylanib qoldi.

- Jadid she'riyatida yetarlicha yangilanishlar paydo bo'la boshladi: an'anaviy aruz o'rni barmoq egalladi; she'riy janrlar takomillashdi; she'riyatning ijtimoiylashuvi kuchaydi; badiiy obrazlar yangilandi; an'anaviy obrazlarga esa yangi ma'no yuklandi.

- Avloniy, Hamza va Cho'lpon kabilar aruz vaznida ham, barmoq vaznida ham ijod qilishdi, go'zal g'azallar, muxammaslar, musaddas-u musammanlarni yozib, yangi she'riyatning yangi olamini yaratishda katta hissa qo'shdilar.

- Jadid shoirlari adabiyotni, xususan, she'riyatni davr talabidan kelib chiqqan holda soddalashtirishga intildilar, uning vazn va janr imkoniyatlarini kengaytirdilar. An'anaviy obrazlarga yangi ma'no yuklandi, ramziylik orqali esa ularning ta'sir kuchini oshirishga erishdilar. Ayniqsa, Avloniy, Hamza, Cho'lpon she'riyatidagi ma'no, badiiy obraz, ramziylik o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

– Avloniy, Hamza, Cho‘lpon kabi ma’rifatparvar ijodkorlar yaratgan milliy she’rlar ularning erk, ozodlik, ilm va ma’rifat haqidagi qarashlarining o‘ziga xos ifoda tarzidan dalolat beradi.

– O‘zbek jadid she’riyatining taraqqiyot tamoyillarini belgilovchi yangi obrazlar, yangi poetik timsollar, yangi shior va chaqiriqlar zahirida yangi milliy she’riyat maydonga keldi.

– Jadid she’riyatidagi yangilanish jarayoni she’rlarning janr va vazn xususiyatlarida, badiiy obraz, ramz va timsollarda, shuningdek, yangicha ijtimoiy-siyosiy masalalar, din, ilm, ma’rifat, maorif, ayollar masalasi kabi mavzularda o‘z ifodasini topdi.

Jadid adabiyoti vakillarining badiiy merosi o‘rganish, tadqiq etish va kerakli xulosalar chiqarish muhim vazifalardan hisoblansa, mana shu adabiyotning yirik vakillari – Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon ijodini anglash bu ma’naviy yuksalish belgisidir.

# **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

## **I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2019. –30 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 08.10.2020. F-5598-son.

## **II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. –490 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston, NMIU, 2019, 2-jild. 508 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – T.: O‘zbekiston, NMIU, 2019, 3-jild. 400 b.

## **III. Ilmiy jurnallar**

6. Arzikulova S. Hamza lirikasida ma’rifat masalasining yoritilishi // Central Asian academic journal of scientific research. Uzbekistan. www.caajsr.uz. 2022.
7. Arzikulova S. Cho‘lpon lirikasida mazlum xalq tasviri // ARES. April, 2021.
8. Alimov B. Istiqlol fidoyilari // Yoshlik. – T.: 1993. –35 b.
9. Ibrohimov M. Hamza qo‘shiqlari poetikasi // O‘zbek tili va adabiyoti. –T.: 1976. -№ 6. –50 b.
10. Sharafiddinov O. Ijod yo‘li // Yoshlik. – T.: 1987. -№ 10. – 49 b.

## **IV. Ilmiy adabiyotlar**

11. Afoqova N. Jadid she’riyati poetikasi. T.: Fan, 2005. 140 b.
12. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 1-jild (she’rlar, ibratlar) T.: Ma’naviyat, 2009. 274 b.
13. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston, yohud axloq. T., 2008.
14. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. T Ma’naviyat, 2004.

15. B. Qosimov. Izlay-izlay topganim. –T.: Adabiyot va san’at, 1983. 272 b.
16. B. Qosimov. Uyg‘ongan millat ma’rifati. –T.: Ma’naviyat, 2011. 320 b.
17. R.Barakeav. O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi.T.Adabiyot nashriyoti, 1998.
18. B. Qosimov, U. Dolimov. Sharaflı hayot. T., G‘.G‘ulom nashriyoti, 1987. 120 b.
19. Hamza. Asarlar. 2 tomlik, 1-tom.(She’rlar). [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
20. Hamza.To‘la asarlar to‘plami. T.: Fan, 1988. 546 b.
21. Eshonova Z. Cho‘lpon poeziyasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. – T.: Fan. 1993.
22. Jabborov N. Zamon. Mezon. She’riyat. –T.: G‘afur G‘ulom, 2015. 304 b.
23. Karimov N. Cho‘lpon. – T.: Fan, 1991.
24. Karimov N. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon. – T.: Fan, 1993.
25. Karimov N. Istiqlolni uyg‘otgan shoir. –T.: Ma’naviyat, 2000. –88 b.
26. Karimov N. Cho‘lpon va uning badiiy olami. –T.: Ma’naviyat, 1994.
27. Nosirov O va boshqalar. O‘zbek klasssik she’riyati janrlari. –T.: O‘qituvchi, 1979. 183 b.
28. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. –T.: Adabiyot va san’at, 1796. 168 b.
29. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. – T.: Sharq, 2004. – 360 b.
30. Sultonov U. Cho‘lponning adabiy-estetik qarashlari. –T.: NDA, 1995.
31. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T. 2004. 128 b.
- 32.Yo‘ldoshev N. Cho‘lpon she’riyatida inson va tabiat talqini. –T.: Akademnashr, 2016. 196 b.
33. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T.: Sharq, 2004.
34. Cho‘lpon – yana oldim sozimni. –T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991.

35. Cho'lpon – Asarlar. Uch jildlik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot Toshkent I, II jildlar. 1994-95.

36. Cho'lpon. Vayronalar orasida. –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.

37. Cho'lpon. Adabiyot nadur? Nashrga tayyorlovchi: Rustam Tojiboyev. –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1992.

#### **V. Dissertatsiya va avtoreferatlar**

38. Afoqova N. O'zbek jadid adabiyotida she'riy shakllar taraqqiyoti tamoyillari. –T.: 2005. 282 b.

39. Ahmedov Sh. Hamza lirikasining xususiyatlari (devon misolida). –T.: 1992. 178 b.

40. Amonov Sh. Hamza she'riyatining manbalari, matniy tadqiqi. –T.: 2010. 132 b. 41. Jabborova D. Istiqlol davri o'zbek adabiyotshunosligida Cho'lpon ijodi talqinlari. Samarqand, 2018. – 48 b.

42. Xoliqova N. O'zbek jadid she'riyatida ozodlik harakatining badiiy talqini. –T.; "Navro'z", 2020 –148 b.

43. Yo'ldoshev N. Cho'lpon she'riyatida peyzaj. –T.: 1994. 168 b.

44. O'roqova O. Cho'lpon badiiy ijodining konseptual-estetik asoslari. –T.: 2018. -37 b.

#### **VI. Internet saytlari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.google.uz](http://www.google.uz)
3. <http://www.pedagog.uz>
4. [www.iste'dod.uz](http://www.iste'dod.uz)
5. [www.bilimlar.uz](http://www.bilimlar.uz)

## MUNDARIJA

|                                                                                                                               |           |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                                            | <b>3</b>  |
| <b>I BOB. JADIDCHILIK HARAKATINING MAYDONGA<br/>KELISHI VA YANGI ADABIYOT .....</b>                                           | <b>7</b>  |
| 1.1. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy va madaniy<br>hayot.....                                                  | 7         |
| 1.2. Milliy adabiyotining yangilanishi .....                                                                                  | 18        |
| <b>II BOB. JADID LIRIKASINING VAZN VA JANR<br/>XUSUSIYATLARI. JADID SHE’RIYATIDA BADIY<br/>OBRAZNING O’ZIGA XOSLIGI .....</b> | <b>28</b> |
| 2.1. Jadid lirikasining vazn va janr xususiyatlari .....                                                                      | 28        |
| 2.2. Jadid she’riyatida badiiy obraz masalasi.....                                                                            | 38        |
| <b>III BOB. MA’RIFAT, MILLIY MUSTAQILLIK VA INSON<br/>ERKI – JADID SHE’RIYATINING BOSH MAVZUSI<br/>SIFATIDA.....</b>          | <b>50</b> |
| 3.1. O‘zbek jadid she’riyatida ramziylik.....                                                                                 | 50        |
| 3.2. Ma’rifat va ozodlik g‘oyalarining badiiy in’ikosi .....                                                                  | 59        |
| <b>XULOSA .....</b>                                                                                                           | <b>73</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>                                                                               | <b>75</b> |

**Arzikulova Sohiba Abdujabbor qizi**

# **JADID SHE'RIYATIDA IJTIMOIY MAVZULAR**

**Monografiya**

**Monografiya muallifning tahririda taqdim etilgan.**

**“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 06.12.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>

Nashriyot bosma tabog‘i 4,2. Shartli bosma taboq 4,6.

Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: [bookmany\\_print@mail.ru](mailto:bookmany_print@mail.ru)

t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10